

KUSHAKOV A., ABDUVAXOBOV A.

STRATIGRAFIYA ASOSLARI

O‘quv qo‘llanma

Toshkent - 2020

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA-MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI**

GEOLOGIYA-GEOGRAFIYA FAKULTETI

Kushakov Abdulla Romanovich

Abduvaxobov Abdurahim

STRATIGRAFIYA ASOSLARI

O'quv qo'llanma

**Toshkent
«Tafakkur avlodi»
2020**

UO'K: 902.01(075.8)

KBK: 26.33ya73

K 96

K 96 Kushakov A.R.

Stratigrafiya asoslari [Matn]: o'quv qo'llanma /
A.R.Kushakov, A.Abduvahobov. – Toshkent: «Tafakkur
avlodi», 2020. – 136 b.

O'quv qo'llanmasi "Stratigrafiya asoslari" fanini o'qiydigan geologiya fakulteti talabalar uchun mo'ljallangan. Unda talabalar ma'ruza darslarini puxta egallashlari uchun kerak bo'lgan asosiy va yordamchi materiallar qisqa berilgan. Qo'llanmani asosiy bo'limlari "Stratigrafiya asoslari" bo'yicha ma'ruza o'qishda ishlataladigan, chop qilingan darslik va o'quv uslubiy nashrlar, nazariy ishlanmalar va amaliy misollar asosida tuzilgan. O'quv qo'llanmada tuzuvchilarni ba'zi mualliflik ishlanmalari keltirilgan. Qo'llanma o'quv rejasida ko'rsatilgan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar mavzulariga mos keladi.

UO'K: 902.01(075.8)

KBK: 26.33ya73

ISBN 978-9943-6690-2-4



**© Kushakov A.R.
© «Tafakkur avlodisi», 2020**

KIRISH

«Stratigrafiya» fanining amaliy mashg'ulotlari uchun mo'ljalangan ushbu qo'llanma eng avvalo universitet va institatlarning yer haqidagi fanlardan bilim beruvchi fakultetlari talabalari uchun tayyorlangan.

Geologiyaning fundamental qismi sifatidagi «Stratigrafiya» fani cho'kindi tog' jinslarining hosil bo'lishi ketma-ketligi va shu bilan bog'liq bo'lgan qatlamlanishning o'ziga xos jihatlari, qatlamlarning moddiy tarkibi, ya'ni yerning cho'kindi qavati va uning alohida geostrukturalari geologik tuzilishining umumiy qonuniyatlarini o'rghanadi.

Ushbu qo'llanma ikki qismdan iborat. Birinchi qism fatsial tahlil va paleogeografik sharoitlarni tiklash masalalariga bag'ishlangan. Bunda stratigrafik ustun tuzish va tavsiflashning amaliy ko'nikmalariga ega bo'lish, yer po'stining vertikal harakatlari kesishini tiklash maqsadida stratigrafik ustunni tahlil qilish, tadqiqot hududining litologik-fatsial kemsalarini va litologik-paleogeografik xaritasini tuzish amallari bajariladi. Bundan tashqari qo'llanmaning mazkur bo'limida fatsial tahlil qilishning asosiy qoidalari bayon qilingan, cho'kindi tog' jinslarining hosil bo'lishi bilan bog'liq holda ularda yuzaga keluvchi strukturaviy va teksturaviy belgilar, qatlam yuzasida saqlanib qolgan belgilar va izlar, hozirda yashayotgan va geologik o'tmishda qirilib ketgan turlicha jonivorlar va o'simliklar organizmlarining hayot tarzi va yashagan muhiti haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Dengiz havzalarining litoral, sublitoral, psevdoabissal, batial va abissal deb ataluvchi bionomik zonalari belgilari ko'rsatilgan.

Ikkinci bo'limda fatsial tahlil qilish va paleogeografik sharoitlarni tiklash bo'yicha to'rtta amaliy topshiriqlarni bajarish uchun uslubiy ko'rsatmalar keltirilgan. Tog' jinslarining moddiy tarkibi, qatlamlanishning o'ziga xos jihatlari, mineral qo'shilmalar, tog' jinslari va qatlamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, ularning yoshi, qatlamlarda tosh qotgan holda saqlanib qolgan organizmlar kompleksi va qatlamlar qalinliklari kabi yuqorida aytib o'tilgan amaliy topshiriqlarni bajarishga asos bo'luvchi daliliy materiallar keltirilgan.


Stratigrafiyaning asosiy qoidalari

Vaqt, vaqt ketma-ketligi va geologik hodisalarini davrlash haqidagi tushunchalar geologiya fanining fundamental asosi hisoblanadi. Geologiyada vaqt muammosi stratigrafiya va geoxronologiya usullari yordamida yechiladi.

Stratigrafiya – Yer kesmasini tashkil etuvchi geologik jismlarning makon va zamondagi munosabatlari haqidagi fandir. Stratigrafiyaning o‘rganish obyekti bo‘lib geologik tanalar hisoblanadi. Ularni o‘rganish makondagi birlamchi o‘zaro munosabatlar va hosil bo‘lishidagi vaqt ketma-ketligini tiklash imkonini yaratadi.


Stratigrafiya o‘z tadqiqotlarda bir qator tamoyillarga tayanadi.

Birinchi tamoyil (N.Stenon tamoyili) yer po‘sti kesmasida geologik tanalar shakllanishidagi ketma-ketlikni belgilaydi va ularning munosabatini vaqt toifasiga o‘tkazadi (yoshroq-qariroq). Shu orqali geologik vaqt to‘g‘risidagi tushunchaga asos yaratiladi. Bir vaqtning o‘zida bu tamoyil birinchi stratigrafik operatsiyani har qanday kesmani tabaqaqlashni, undagi geologik chegaralarni asoslashni va stratigrafik tabaqaqlarni ajratishni ta’minlaydi.




1-rasm.


2-rasm. Paleogen biostratigrafik ustun, nannoplancton qoldiqlari bo'yicha.



Ikkinchı tamoyıl (T.Geksli tamoyili) bir-biridan uzoq joylashgan kesmalardagi paleontologik, litologik va boshqa ko‘plab belgilarni aynan ketma-ketligini oshib beradi. T.Geksli tamoyili stratigrafik tadqiqotlarning ikkinchi operatsiyasini – kesmalar va ularni tashkil etuvchi tabaqalarni (geologik tanalar) taqqoslash imkoniyatini ta’minlaydi.



2-rasm.



3-rasm.

Uchinchi tamoyil S.V.Meyen tomonidan taklif etilgan bo‘lib, u turli fatsiyadagi yotqiziqlarni taqqoslash imkonini beruvchi hodisalarning xronologik o‘zaro o‘rin bosish tamoyili deb nomlangan. Turli fauna va flora guruhlari, litologik va paleontologik, geofizik va boshqa belgilar birligining o‘zaro o‘rinnbosishi yordamida har qanday genezisdagi stratigrafik tabaqalarini, turli iqlimiylar mintaqalarini, paleobiogeografik viloyatlarni planetar miqyosda ham taqqoslash amalga oshiriladi. Stratigrafiyaning bu tamoyili mintaqaviy stratigrafik jadvallarni ham o‘zaro, ham xalqaro stratigrafik jadval bilan bog‘lash imkonini beradi.

To‘rtinchi tamoyil D.L.Stepanov va M.S.Mesejnikovlar tomonidan taklif etilgan va S.V.Meyen tomonidan to‘ldirilgan. U stratonlar - stratigrafik tabaqalarining stratotipik etalonlar noyobligini, fazo va makonda takrorlanmasligini bildiradi. Ulardan xalqaro stratigrafik jadval ham, mintaqaviy va mahalliy shkalalar ham tarkib topgan bo‘ladi.

Xalqaro stratigrafik jadvalni tafsiflash va uni tashkil etuvchi mintaqaviy va mahalliy sxemalarni yaratish stratigrafiyaning yaxuniy maqsadi hisoblanadi. Stratigrafik taddiqotlr ikkita muhim vazifani – kesmalarni stratigrafik tabaqalash va stratigrafik taqqoslashni amalga oshirishga qaratilgan hamda ular orqali Yer evolyutsiyasining bosh guvohlari-geologik tanalarning to‘planishi zamon-makoniy munosabatlarida ifodalangan geologik vaqt, uning ketma-ketligi to‘g‘risidagi tushuncha hosil qiladi. Stratigrafik tabaqalash deganda tog‘ jinslarining birlamchi tik (vertikal) ketma-ketligi va qatlamlanish xususiyatlarini, ularning tarkibi va organik qoldiqlarining o‘zgarishi, kesmalarni tashkil etuvchi turli qatlam va qatlamchalarning o‘ziga xos xususiyatlari tushuniladi. Kesmalarni taqqoslashda foydalilaniladigan usullarning turlari juda keng. Bularning orasida paleontologik, litologik, geoximik, geofizik, shu jumladan paleomagnit, radiologik va boshqa ko‘plab usullarni ko‘rsatish mumkin. Bu usullarning har biri, bir-biriga bog‘liq bo‘lmaslik holda, kesmalarni alohida seksiyalarga ajratish imkonini beradi. Ularni umumiy belgilar bo‘yicha birlashtirish, turli toifadagi stratigrafik tabaqalarini ajratish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Kesmalarni tabaqalashning nazary asosi bo‘lib N.Stenon tamoyili hisoblanadi. Bu tamoyilga muvofiq, ustidagi qatlam ostidagiga nisbatan yosh bo‘ladi (qatlamlar yotishi buzilmaganda).

Stratigrafik korrelyatsiya yoki qiyoslash – bu kesmalarni tabaqlashda ajratilgan stratigrafik bo‘linmalarini o‘zaro taqqoslash va ularning yosh munosabatlarini aniqlashdir. Korrelyatsiyaning umumiyligi tamoyillari saqlangan holda (T.Geksli va o‘zaro o‘rin bosish tamoyillari) tadqiqotlar miqyosiga bog‘liq holda turli usullar qo‘llaniladi. Umum sayyoraviy ahamiyatga ega sxemalarni yaratishda organik dunyoning takrorlanmas evolyutsiyasi usuli eng muhim hisoblanadi. Fanerozoyning xalqaro stratigrafik jadvalida tayangan holda, ular qit’alar va okeanlar kesmalarini, turli geotektonik va paleoiqlimiyligi sharoitlarda shakllangan mintaqaviy stratigrafik tabaqlarni taqqoslash imkonini beradi. Dunyo okeani sathining evstatik tebranishini hisobga olgan hodisaviy stratigrafiya usullari, qutblarni almashuvi, tog‘ jinslarining mutlaq yoshini aniqlash va boshqa usullar ham yuqori taqqoslash kuchiga ega.

Cho‘kindi to‘planish havzalari yoki ularning bir qismini egallagan mahalliy va mintaqaviy darajadagi taqqoslash usullari juda keng. Bu sohada paleontologik usul yetakchi bo‘lib qoladi.

Stratigrafiya geologik vaqt

Stratigrafiya geologik vaqt, tog‘ jinslari qatlamlarining ketma-ketligi va yoshi bo‘yicha o‘zaro munosabati hamda Yer tarixini davriylash haqidagi fan.


Geologik vaqt muammosi, tog‘ jinslarining yoshini aniqlash kabi, geologiyada eng muhim sanaladi. U tarixiy geologiyaning tarmoqlaridan biri bo‘lgan stratigrafiya usullari yordamida yechiladi. Stratigrafiya - yoshi nisbiy (geoxronologik) va mutloq (astronomik) vaqt shkalasi bilan belgilangan turli darajadagi geologik tanalarning (superkrustal hosililar) shakllanishida tamg‘alangan Yer tarixini davriylash haqidagi fandir.

Hozir geologiyada bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan ikkita parallel: nisbiy va mutloq yilnomalardan foydalilaniladi. Ulardan har biri turli geologik hodisalarini va turli tog‘ jinslari qatlamlarining hosil bo‘lish vaqtini belgilash (yoshini aniqlash) uchun xizmat qiladi.

Nisbiy geoxronologiya xalqaro geoxronologik shkala

Nisbiy yil hisobida (nisbiy geoxronologiya) vaqt tog‘ jinslari va ulardagi organik qoldiqlarda tamg‘alangan turli geologik hodisalarning zamonda ketma-ket almashinishi sifatida qabul qilinadi.

СТРАТИГРАФИЧЕСКАЯ (ГЕОХРОНОЛОГИЧЕСКАЯ) ШКАЛА



5-rasm.

Birinchi muammo (geoxronologik) mutloq geoxronologiya rubrikasi (sekundlar, minutlar, soatlar, yillar, asrlar, va h.k.) singari shaklida, ammo hodisalarning almashinishi orqali ifodalangan geologik vaqt iyerarxiyasini (rubrikatsiyasini) ishlab chiqish lozimligi bilan bog'liq. Geoxronologik shkala etaloni sifatida organik dunyo evolyutsiyasi qabul qilingan. Chunki ularning almashinishi vaqt bo'yicha yetarli darajada tez amalga oshgan.

Hozirgi kunda shkala quyidagi tabaqalardan (gradasiyalardan): eon, era, davr, epoxa, asr, fazadan iborat bo'lib, ularning har biri vaqt bo'yicha bir-birini almashiruvchi organik qoldiqlar-otryadlar, oilalar va ajdodlar kompleksiga mos keladi. Eng mayda birliklarni ajratish tez evolyutsiyalanadigan dengiz hayvonlari va o'simliklarining turlari bo'yicha amalga oshiriladi. Faunalarning (o'rtafaunalarning) bunday guruhlari yetakchi sanaladi.

Shunday qilib, geoxronologik, o'z mohiyati bo'yicha bioxronologik, shkala geologik vaqt etoloni hisoblanadi. Ma'lum davomiylikka va yoshga ega bo'lgan biostratigrafik tabaqalar (eon, era, davr, asr) chegaralari bilan to'ldirilgan shkala tog' jinslarining va ularning vujudga kelishiga sababchi hodisalarning yoshini aniqlashda ishonchli asos bo'ldi.

Stratigrafiyaning ikkinchi vazifasi, geoxronologik shkalani yaratish va tog' jinslarining yoshini aniqlash bilan bir qatorda Yerning rivojlanishi bilan bog'liq tabiiy strukturaviy-moddiy (superkrustal) tabaqalarni ajratish va asoslash hisoblanadi. Bu tabaqalar planetaning ma'lum rivojlanish bosqichlari va stadiyalariga mos keladi. Bu shartlarga tabaqalari (eonotema, eratema (gruppa), sistema, bo'lim, yarus, zona) vaqt bo'yicha geoxronologik shkala ekvivalentiga mos keluvchi xalqaro stratigrafik shkala to'g'ri kelishi lozim.

Mutloq geoxronologiya

Geologiyada mutloq (astronomik) vaqtning rubrikatsiyasi tog' jinslari yoshini vaqtning astronomik birliklarida - davomiyligi vaqt mashtabida o'zgarmas mutloq deb qabul qilingan yillarda hisoblashga asoslangan. Tog' jinslarining mutloq yoshini aniqlash imkoniyati bir qator kimyoviy elementlarning beqaror izotoplari radioaktiv parchalanish jarayonini kashf qilinishidan so'ng vujudga

keldi. Tog‘ jinslarining mutloq yoshini aniqlash radiometrik usuli asosida beqaror izotoplarning radioaktiv parchalanish fizik hodisasi yotadi. Mass - spektrometriya usulini mukammallashtirish tog‘ jinslarining mutloq yoshini yoppasiga aniqlash imkoniyatini berdi. Hozirgi vaqtida bu usul magmatik jinslarning yoshini aniqlashda va arxey va proterozoy formasiyalarining yoshini aniqlashda yagona usul hisoblanadi. Radiologik usullar asosida geoxronologik shkalaning asosiy tabaqalari – eon, era, davr, epoxa va xatto asrlarning boshlanishi va yakuni yoshi va davomiyligi aniqlanadi.

Paleomagnit usuli tog‘ jinslarining hosil bo‘lish vaqtida magnitlanish (paleoqutblanish) xususiyatlarini saqlab qolishga asoslangan. Janubiy va shimoliy qutblarning hamda magnit maydoni kuchlanishi ishorasining davriy almashinib turishi (magnit inversiyasi) tog‘ jinslarida to‘g‘ri va teskari magnitlanish holida saqlanib qolishi cho‘kindi jinslar yotqiziqlarini planetar miqyosda taqqoslash imkoniyatini yaratadi. Ochilmalar va burg‘i quduqlaridan olingan tog‘ jinslarining magnit xossalarni o‘rganish asosida magnit anomaliyalarining yoshini aniqlash va graduirovkalash amalga oshiriladi. Bu esa kaynozoy va mezozoy uchun tafsiliy, paleozoy uchun tarkibiy magnitostratigrafik shkala yaratish imkonini beradi. Magnitostratigrafik shkalaning asosiy gradatsiyalari (tabaqalari) bo‘lib qutbiylikning intervali, xronasi va superxronasi hisoblanadi.

Mintaqaviy (regional) stratigrafiya: unifikatsiyalangan va ishchi stratigrafik sxemalar

Unifikatsiyalangan va ishchi stratigrafik sxemalar turli geologik tadqiqotlar-geologik xaritalash, foydali qazilmalarni qidirish va razvedka qilishda mintaqadagi yotqiziqlarni ishonchli tabaqalash va taqqoslashni ta‘minlashga mo‘ljallangan. Ular asosida geologik, tektonik va boshqa maxsus xaritalar uchun legendalar yaratiladi.

Mintaqaviy sxemalarning mazmuni stratigrafiyaning asosiy tamoyillariga to‘g‘ri kelishi- stratigrafik tabaqalarning yoshi va ketma-ketligini xarakterlashi lozim. Mintaqaviy stratigrafik shkala mintqa rivojlanishining individual xususiyatlarini aks ettiradi. Uning asosini mintaqaviy biostratigrafik va lithostratigrafik tabaqalar tashkil etadi. Ular ko‘p hollarda xalqaro shkala tabaqalariga to‘g‘ri kelmaydi. Mintaqaviy shkalaning asosiy tabaqalari bo‘lib gorizontlar

va lonalar – umumiy shkalaning mahalliy xronostratigrafik (biostratigrafik) muqobilari va yordamchi litostratigrafik tabaqalar - komplekslar, seriyalar va svitalar (amerika nomenklaturasida formatsiyalar) sanaladi.

Bu tadqiqotlar natijasida ikki qismdan: dunyo xronostandarti bilan bog'langan mintaqaviy stratigrafik shkala va umumiy xronostratigrafik matritsada geologik tanalarning (komplekslar, seriyalar va svitalar) o'rnnini ko'rsatuvchi korrelyatsion litostratigrafik shkaladan iborat bo'ladi.

Shunday qilib, mintaqaviy stratigrafiyaning usullari geologik tanalarni ajratish, ularning yoshini asoslash va o'rgani layotgan hududlarning rivojlanishidagi asosiy qonuniyatini belgilash imkoniyatini beradi

Hodisaviy stratigrafiya - yangi yo'nalish

Yer tarixi va uning alohida olingen regionlarini davriylash stratigrafiyaning muhim vazifasi hisoblanadi. U Yerning 4,6 mlyard yildan ortiq vaqtida qaytmas evolyutsiyasidagi turli geologik hodisalar va jarayonlarni o'rganishdan iborat. Shuning uchun ham keyingi 10-15 yil davomida stratigrafiyaning bu tomoni tadqiqotchilarning diqqatini jalb qildi. Yangi ilmiy yo'nalish - hodisaviy stratigrafiya shakllanmoqda. Uning tamoyillari va usullari xalqaro xronostratigrafik (biostratigrafik) shkalani ishlab chiqish paytida to'liq shakllandi. Natijada nafaqat nisbiy geologik vaqt shkalasi yaratildi va shuningdek organik dunyo evolyutsiyasining tezligi, yo'naganligi va davriyligi aniqlanadi. Fauna va flora komplekslari almashinuvi Yer tarixida muhim hodisa hisoblanadi.

Yer tarixida iqlimi va geodinamik rejimlangan bir necha bor o'zgargan va qaytmas evolyutsiyalangan, transgressiya va regressiya almashgan, landshaftlar va cho'kindi hosil bo'lish paleogeografik sharoitlari o'zgargan, magmageneratsiya jarayonlari qaytmas evolyutsiyalangan. Ularning majmuasidan Yerning tarixi hosil bo'ladi.

Xronostratigrafik asosda Yer tarixini davriylash - biostratigrafiya, magnitostratigrafiya va mutloq geoxronologiya birinchi navbatda Yer qobiqlari evolyutsiyasini, planeta evolyutsiyasi tezligi va yo'nalishini geodinamik strukturalar va

paleolandshaftlar rivojlanishini eng to‘liq aks ettiruvchi. Bunday davriylash sxemasini yaratishga bir necha bor harakat qilindi. Bunga misol bo‘lib tektonik (tektogenetik epoxalari va fazalari) yoki iqlimiyl (litogenez turlarining evolyutsiyasi) asosda davriylash sanaladi. Keyingi yillarda, yangi litosfera plitalari tektonikasi g‘oyasi munosabati bilan Pingey rivojlanish tarixi pozitsiyasida davriylash sxemalari yaratilmoqda. Agar tarixiy - geologik hodisalar global sxemasini yaratish kelajak ishi bo‘lsa, regional darajada bu masala juda muvaffaqiyatli hal etilmoqda.

Fatsial tahlil va paleogeografik sharoitni tiklash

Tadqiq etilayotgan stratigrafik birlikning biror qismi uning yondosh qo‘shni qismalaridan farqlab turuvchi o‘ziga xos litologik va paleontologik belgililariga ega bo‘lsa, bunday qatlama fatsiya deb ataladi.

Fatsial tahlil o‘rganilayotgan hudud geologik o‘tmishining geografik sharoitlarini tiklash usuli sifatida aktualizm tamoyilining zamona viy rivojlangan turi bo‘lgan qiyosiy-tarixiy usuliga tayanadi. Kesmada aks etgan tog‘ jinslari turlari bo‘yicha paleogeografik sharoitning tiklanishini ta’min etuvchi litologik tahlil va organizmlarning tosh qotgan formalari bo‘yicha paleogeografik sharoitning barcha jihatlarini yoritib beruvchi bionomik tahlil fatsial tahlilning ikki tarkibiy qismidir.

Yer po‘stida kuzatiluvchi cho‘kindi hosilalarning asosiy massasi dengiz va okeanlarda, oz qismi esa quruklikda hosil bo‘ladi.

Dunyo okeanida butun suv qatlamidan tarkib topgan pelagial va suv havzasi tubidan iborat bental deb ataluvchi yirik oblastlar ajratiladi. Okean tubi, ya’ni bental oblast geomorfologik xususiyatlari bilan materik sayozligi (shelf), materik yonbag‘ri va bevosita okean tubi kabi zonalarga ajraladi. Shelf va materik yon bag‘ri kontinentning dunyo okeani suvi ostidagi chetki qismini hosil qiladi va materiklarning asosiy strukturalari kontinentlar ichidan Yer po‘sti odatda granit-metamorfik xarakterga ega bo‘lgan bu yerlargacha cho‘zilib davom etib kelishi mumkin. Okeanlar tubi hududida o‘ziga xos strukturalar rivojlangan bo‘lib, okean osti tipidagi Yer po‘sti shakllangandir. Shelf chuqurligi dengiz qirg‘og‘idagi nolinchchi chegaradan 200 m gacha, ayrim joylardagina

500 m ga yetadi, uning qiyaligi esa 1°C dan oshmasligi mumkin. Materik yon bag'ri okean chuqurligining 3-4 km gacha davom etadi va 5°C li qiyalikka ega. Okean tubi 3-4 km chuqurlikdagi tekisliklar va platalardan, suv osti tog' jinslari va ayrim joylarda, teran suv osti jelob(nov)laridan iborat. Teranlikdagi suv osti jelob(nov)lari chuqurligi 6-11 km atrofida bo'ladi.

Okean tubi (bental) oblasti o'ziga xos dengiz jonivorlari turlari bilan belgilanuvchi bir necha vertikal faunistik zonalarga ajratiladi va ushbu zonalar, ayni paytda, dengizning bionomik zonalari deb ham ataladi. Biroq okeanlardagi suv qatlamini bunday vertikal zonalarga ajratishning umumqabul qilingan qat'iy sxemasi ishlab chiqilmagan. Okean suvi yuzasidan uning tubiga tomon litoral, sublitoral, epibatial, batial va abissal zonalarini shartli ravishda ajratish mumkin.

Dengiz suv sathining maksimal pasayishi mumkin bo'lgan eng quyi chizig'i okean chegarasi deb ataladi. Litoralning nolinchi chuqurlik chizig'idan yuqorida joylashgan qismi rasman quruqlikka mansub bo'lsa ham, amalda dengiz zonasini hisoblanadi, chunki ushbu zonada ham okeanning quruqlikka ta'sirining kuchli namoyon bo'lishi kuzatiladi.

Dengiz yotqiziqlarining asosiy massasi eng avvalo shelfda va materik yon bag'ri etaklarida shakllanadi, anchagina kam miqdorda esa materik yon bag'irlarida (hali zichlashmagan cho'kmalar materik yon bag'irlaridan uning etaklari tomon faol siljishi tufayli) va abissal tekisliklar hududlarida to'planadi.

Shelf oblastida asosan ko'proq qum to'planadi, il cho'kmalari dengiz to'lqinlari kamroq ta'sir qiluvchi joylarda va botiqliklarda shakllanadi, yirik bo'lakli cho'kmalar esa, aksincha, dengizning kuchli oqimlari va to'lqinlari amal qiladigan uchastkalarda yotqiziladi. Cho'kma to'planishi jarayoniga tadqiq etilayotgan rayonning paleo iqlimi ham o'ziga xos tarzda ta'sirini o'tkazadi. Xususan, il cho'kmasi nam tropik rayonlarda hosil bo'ladi; qumlar barcha hududlarda rivojlana olsa ham ularning maksimal miqdorlardagi yotqiziqlari o'rtacha iqlimli zonalarda kuzatiladi; shag'allar va g'o'lak toshlar ko'proq past haroratli rayonlarda hosil bo'ladi; rifli ohaktoshlar asosan tropik zonalarda, chig'anoqli hosilalar esa arid oblastlarda shakllanadi.

Materiklar yon bag'irlari etaklarida asosan dengiz yotqiziqlari va xususan, terrigen hosilalarning asosiy massasi rivojlanadi. Cho'kmalar qalinligi 8-10 km gacha bo'ladi. Bulardan tashqari teran chuqurliklarda jeloblarda ham nisbatan ko'p miqdorlarda cho'kmalar to'planib qoladi va ularning qalinliklari 3 km gacha yetishi mumkin.

Kontinentlarda cho'kmalar to'planishi cheklangan miqyoslarda ro'y beradi. Kontinental yotqiziqlar genezisiga (hosil bo'lish sharoitlari) ko'ra turlichadir, ularning tashqi ko'rinishi cho'kma to'planishi yuz berayotgan paytdagi iqlim sharoitlariga ko'p jihatdan bog'liqidir. Arid va gumid (ko'proq qirg'oq bo'y) oblastlari past tekisliklari, tog'lar etaklari, tog'lararo kotlovinalar (botiqliklar) va materiklarda muzliklar oblastlari kontinental yotqiziqlar tarqalgan asosiy hududlardir.

Bundan tashqari, yana shunday hududlar ham mavjudki, u yerlarda kontinental cho'kindilardan dengiz yotqiziqlariga o'tishi yuz beradi. Bunday hududlarga daryolar deltalari, ko'rfazlar va limanlar mansubdir. Ushbu zonalarda ham cho'kma to'planishi ko'p hollarda iqlim sharoitlariga bog'liq.

Litologik tahlil asoslari

O'rganilayotgan hududning geologik kesmasida aks etgan tog' jinslarini litologik xususiyatlari bo'yicha tahlil etish qadimgi geologik o'tmishda hukm surgan geografik sharoitni tiklashga asos bo'ladi. Bunda, birinchi navbatda, tog' jinslari va xususan, ularning mineralogik tarkibi va tuzilishini o'rganish litologik tahlilning o'zagini tashkil etadi.

Tog' jinslarining asosiy turlari va ularning hosil bo'lishi sharoitlari haqida ma'lumotlar


Cho'kindi tog' jinslarining ayrimlari (masalan, qumtoshlar, gillar va x.k.) turlicha tabiiy geografik sharoitlarda hosil bo'lishi mumkin. Litologik tarkibi bir xil bo'lishiga qaramay mazkur tog' jinslari turlicha strukturaviy, teksturaviy va boshqa belgilariga ega bo'lishi mumkin, belgilar esa, o'z navbatida, o'sha tog' jinslarining yer yuzasining qayerida va qanday sharoitlarida hosil bo'lganini u yoki bu aniqlik darajasida belgilab beradi.

Brekchiyalar – agar cho‘kindi xarakterga ega bo‘lsa, bunday tog‘ jinslar cho‘l va tog‘li oblastlardagi nurash jarayoni mahsulotlari (elyuvial brekchiyalar) sifatida tog‘ etaklarida esa uyumlar (kollyuviy) va o‘pirilish hosilalari shaklida yuzaga keladi. Dengiz brekchiyalari esa qirg‘oq to‘lqini zarbidan qirg‘oq jarliklarining qulab tushishi natijasida paydo bo‘ladi, yana shuningdek rif qoyalarining yemirilishi natijasida rif qurilmalari yon bag‘irlarida hosil bo‘ladi.

Konglomeratlar, g‘o‘lak toshlar – vaqtinchalik oqar suvlar oqimlarida hosil bo‘ladi va chiqarma konuslarini tarkib topdiruvchi bo‘lakli materiallardir. Bo‘laklar saralanishi turlicha darajada bo‘lib, aksariyat hollarda yomon silliqlanganligi bilan ajralib turadi. Qirg‘oq to‘lqin zonasidagi bo‘laklar saralanish va silliqlanish darajasining yuqoriligi bilan xarakterlanadi, bunday bo‘laklar dengiz qirg‘oqlari uchun juda xos bo‘lsa, ko‘llar sharoiti uchun unchalik tipik emas, suvli havzalarning 10-15 m chuqurliklarida bunday go‘lak toshlar umuman uchramaydi. Tog‘ daryolari vodiylari va deltalarida g‘o‘lak toshlar yaxshi silliqlangan bo‘lakli materiallardan iboratdir.

Qumlar, qumtoshlar. Vaqtinchalik oqar suvlar mahsuloti va chiqarma konuslarini tashkil etuvchi komponentlardan bo‘lgan qumlar va qumtoshlar tarkibining bir jinsli emasligi, gil zarralarining mavjudligi, yomon saralanganligi va qirrali donaga ega ekanligi bilan tavsiflanadi. Agar bunday hosilalar daryo vodiylarida shakllangan bo‘lsa, tarkibining bir jinsliligi, yaxshi saralanganligi va bo‘laklarining silliqlanishi yuqori darajada ekanligi bilan ajratib turadi. Ko‘llar (ayniqsa, yirik ko‘llar) qumlar dengiz qumlariga o‘xshash bo‘ladi. Eol (shamol) qumlar yaxshi saralanganligi, mayda va ayni paytda yuqori darajada silliqlangan donalardan iboratligi bilan xarakterlanadi. Dengiz qumlar ham odatda yaxshi saralangan, qum donalari esa yuqori silliqlangan bo‘ladi. Bunday qumlar, aksariyat dengizning sayoz uchastkalarida va qirg‘oq-to‘lqin zonalarida rivojlangan bo‘ladi, bir necha yuz metr chuqurlikda kamdan kam hollarda dengiz tubi oqimlari qumlar sifatida kuzatiladi.

Gillar, argillitlar. Kontinentlarda gillar davlatash zonalarida, daryolar vodiylari va ko‘llarda hosil bo‘ladi. Nurash zonalaridagi



gillar ba'zan tub tog' jinslarning relikt tuzilishini saqlab qolgan bo'ladi. Gilli asos tarkibida ba'zan qum zarralari ko'rinishida yemirilmagan minerallar yoki ona jins bo'laklari uchrashi mumkin. Ko'lllar va ko'rfazlar gillari yupqa va aniq hamda tasmasimon qatlamlanishi bilan xarakterlanadi, odatda toza holda shakllangan bo'lib qumli qo'shimchalarga ega bo'lmaydi. Dengiz gillari litoraldan abissalgacha bo'lgan barcha bionomik zonalarda hosil bo'ladi. Litoral gillar yaxshi saralanmaganligi, gilli "qumaloq"ga egaligi bilan boshqa gillardan ajralib turadi, ular orollarni materiklardan ajratib turuvchi bo'g'ozlar va ko'rfazlarda hosil bo'ladi. Sublitoral va ayniqsa, psevdoabissal zonasasi gillari ko'p holatlarda qatlamlashgan shaklda kuzatiladi, ular yaxshi saralangan va aniq qatlamlukka ega bo'ladi. Dengiz havzasining teran chuqurliklaridagi gillar psevdoabissal gillariga o'xshab ketadi va aksariyat hollarda ularni alohida birliklarga ajratish qiyin. Shuni ta'kidlash lozimki, gillarni (ba'zan, argillitlarni ham) hosil bo'lish sharoitlari bo'yicha ajratishda ularning mineralogik, teksturaviy va paleontologik belgilarini hisobga olish lozim bo'ladi.

Ohaktoshlar. Ushbu geologik hosilalar dengiz muhitining abissaldan to qirg'oq-to'lqin zonasigacha bo'lgan turli chuqurliklarida, yana shuningdek ko'rfazlarda, ba'zan esa cho'l hududlaridagi ko'llarda yuzaga kelgan turlicha sho'rlik darajasidagi sharoitlarda hosil bo'ladi. Odatda ohaktoshlar hosil bo'lishi quruqlik past tekkisliklariga tutash bo'lgan ochiq dengizlar bilan bog'liq. Oolitli ohaktoshlar dengizning litoral zonasiga, tropik va subtropiklarda esa litoralning eng yuqori qismiga xosdir.

Bo'r hosilalari biogen cho'kindi xarakterga ega. Bunday tog' jinslari kokkolitoforidlar deb ataluvchi dengiz planktonli suv o'tlarining ohaktoshli po'stlari va mayda foraminiferalar chig'anoqlari parchalaridan hosil bo'ladi; bo'r odatda iliq suvli dengizning 100-300 m va undan ham chuqurroqdagi tubida pelagik cho'kmadan hosil bo'ladi.

Dolomit tog' jinslari mahalliy (lokal) ko'lamlarda tarqaladi. Ular lagunalarda, yopiq dengizlarning vaqtincha suv bosuvchi zonalarida, ko'llarda, odatda yuqori sho'rlik darajasidagi sharoitlarda hosil bo'ladi. Ba'zan me'yordagi va hatto me'yordan past sho'rlikdagi havzalarda ham uchraydi. Ikkilamchi dolomitlar

ohaktoshli tog' jinslarida kechuvchi jarayonlar natijasida (ohaktoshlarning dolomitlashuvchi) hosil bo'ladi va ushbu omil paleogeografik sharoitlarni tiklashda hisobga olinmasligi kerak. Ikkilamchi dolomitlar belgisi sifatida karbonatli tog' jinslari qatlamlarida kuzatiluvchi dog'larni keltirish mumkin. Bunday dog'li tekstura qatlamlarda yer osti suvlari sirkulyatsiyasini osonlashtiruvchi tog' jinslari darzliklarining rivojlanishi bilan bog'liq.

Mergellar ko'proq dengiz yotqiziqlari orasida uhraydi, quruqlikdagi ko'llarda hosil bo'luvchi tog' jinslari tarkibida esa kam kuzatiladi.

Kremniyli tog' jinslari ham dengiz sharoitlarida hosil bo'ladi va turlicha xillardan iboratdir. Diatomitlar, treppellar va opokalar meza zoyning epikontinental dengizlari sayozliklari tubida diatomlarning kremniyli qavatlari (yoki po'stlari) to'planishidan (diatomitlar) hosil bo'ladi yoki biogen-xemogen va xemogen (treppellar, opokalar) xarakterga ega bo'ladi. Zamonaviy okean havzalarida diatomitli va radiolyariyali illar mayda organizmlarning karbonatli suyaklari erishi ro'y beradigan "kritik chuqurlik"dan ham quyida hosil bo'ladi. Turli xil silitcilar dengizning turli chuqurlikdagi uchastkalarida, dengizning teran chuqurliklarida erigan kremnezemni olib chiquvchi suv osti issiq buloqlarning ta'siri zonasida hosil bo'lishi mumkin. Suv osti vulqonlari faoliyati bilan bog'liq holda hosil bo'luvchi yashmalar alohida tipdag'i tog' jinslaridir.

Boksitlar avvalo, issiq va nam iqlimli zonalarda elyuviy hosilalar sifatida shakllanadi. Kontinental sharoitlarda boksit hosilalarning tashilishi va qayta yotqizilishi gilsimon va gilning loviyasimon-bo'lakli xillarining delyuvial shleyflarda uchrashiga, karst botiqliklarining to'ldirilishiga, allyuvial, ko'l va botqoqlik cho'kindilari tarkibida qatlamchalar va linzalar hosil bo'lishiga olib keladi. Botqoqlik cho'kmalaridagi boksitlarning siderit va ko'mirli qatlamchalar bilan assotsiatsiyalanib kelishi ularning o'ziga xos xususiyatidir. Oolitli va loviyasimon boksitlar pasttekislik qirg'oqlari yaqinidagi shelfning yuqori qismida (50-60m chuqurlikkacha) to'planadi; ularning hosil bo'lishi ba'zan rif

qurilmalari bilan bog'liqlikda ham yuz berishi mumkin. Bokslarning rangi qizil, kulrang va yashil bo'ladi.

Qo'ng'ir temir tosh ("бурый железняк") gyotit va limonit aralashmasidan iborat bo'lib gumid iqlimli oblastlarda juda keng tarqalgandir. Ushbu hududlarda temir oksidlari va gidrooksidlari hosil bo'lgan joyda saqlanib qolgan elyuviylarda ba'zan-bo'zan kuzatiladi. Mazkur birikmalarining qayta yotqizilishi natijasida ularning uyum (to'plari karst bo'shilqlarida, allyuvial va delta yotqiziqlari orasida, ko'llarda va botqoqliklarda hosil bo'ladi. Qo'ng'ir temirtosh oolitlar, loviyasimonlar shaklida va yalpi to'plamlar ko'rinishida dengizlarning qirg'oq bo'yli qumli zonasida (qo'ltiqlar, ko'rfazlar va bo'g'izlarda) 50-60m chuqurlikkacha shakllanadi. Ushbu jarayon doimo oksidlovchi muhitda kechadi.

Marganets ma'danlari psilomelan va ushbu guruhning boshqa minerallaridan tarkib topgan bo'ladi, gumid iqlim mavjud bo'lgan zonalarda, nisbatan sokin gidrodinamik sharoitlarda terrigen materiallarning biroz miqdorlarda kelib turishi kuzatiluvchi shelfning sayoz (50-60m chuqurlikkacha) qismida cho'kma to'planishi jarayonida hosil bo'ladi. Havzaning turli chuqurliklarida marganets birikmalarining paydo bo'lishi asosan suv osti vulqonlarining faoliyati natijasidir; bunday vaziyatlarda marganets birikmali ko'proq kremniy tog' jinslari tarkibida uchraydi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan bokslar, cho'kindi temir va marganets ma'danlari umumiy bir qatorni tashkil etadi. Qatorning alohida elementlari o'zlarining izchil joylashishlari bo'yicha dengiz tomonga yo'nalgan bo'ladi. Agar bokslarning hosil bo'lishi kontinentlarda yuz bersa, temir ma'danlarining shakllanishi ham quruqliklarda ham dengiz sharoitlarida ro'y beradi. Marganets ma'danlari esa aksariyat hollarda dengiz havzalarida hosil bo'ladi.

Ko'mirlar asosan dengiz bo'yli va va quruqlik ichidagi allyuvial-delta pasttekisliklarining keng maydonlarida joylashgan va nam iqlim sharoitlarida hosil bo'lgan torfyaniqlarda yuzaga keladi. Dengiz bo'yli pasttekisliklarida hosil bo'lgan ko'mir qatlamlari katta maydonlarni egallagan bo'ladi, biroq qatlamlar qalinligi kichik miqdorlarni tashkil etadi, ko'mirning kuli ham kam darajada bo'ladi. Quruqlik ichkarisidagi allyuvial past tekisliklarda shakllangan ko'mir qatlamlari qalingina bo'lgani holda maydon bo'ylab keng

tarqalmagan bo‘ladi. Bunday ko‘mirlarning kuldorlik darajasi ancha yuqori bo‘ladi.

Yonuvchi slanetslar aksariyat hollarda dengizning ichkarisida, qirg‘oqdan anchagina masofada va ayrim hollardagina dengizning qirg‘oq bo‘ylarida, dengiz tubi o‘simliklari rivojlangan sayoz suvli zonalarida hosil bo‘ladi.

Tuzlar (natriy, kaliy, kalsiy va magniyning xloridlari va sulfatlari) arid iqlimli oblastlarning dengizdan ajralib qolgan lagunalarda, yopiq suvli havzalarning sho‘r suvli muhitida cho‘kadi.

Minerallar – cho‘kma hosil bo‘lishi sharoitlari ko‘rsatkichlari

Pirit va **markazit** yupqa sochilgan holatda kristallar, konkretsiyalar ko‘rinishida va organik qoldiqlardagi psevdomorfozalar shaklida uchraydi. Hosil bo‘lishi esa dengiz tubida, kislorodsiz turg‘un suvlar sharoitida, serovodorodli muhitda yuz beradi (bunday tog‘ jinsi tarkibida bentos organizmlar qoldiqlari uchramaydi) yoki oksidlovchi muhitdag‘i cho‘kmada (bunda bentos organizmlar qoldiqlari kuzatiladi) kechadi.

Psilomelan va ushbu guruhning boshqa minerallari rangi qoradan qizil-qo‘ng‘irgacha bo‘lgan oqmalar va tuproqsimon massalar ko‘rinishida bo‘ladi. Oksidlanish zonasida hosil bo‘ladi.

Gematit (temir slyudasi, qizil temirtosh) kristallar, yashirin kristalli va kukunsimon massalar ko‘rinishida uchraydi; to‘plamlar hosil qiladi, ko‘proq kremniyli, karbonatli va terrigen jinslarda yupqa sochmalar shaklida kuzatiladi. Kukun holida sarg‘ish-qo‘ng‘ir ranga ega. Kislород va namlik yetarli darajada bo‘lgan muhitda hosil bo‘ladi.

Siderit konkretsiyalar va qatlamchalarda yupqa sochilgan holda bo‘ladi. Mineral sayoz suvli lagunalar va dengiz ko‘rfazlarida, ba’zan anchagina chuqurliklar va psevdoabissal zonalarida, biroq doimo turg‘un suvli va kislород yetarli bo‘lmagan muhitda hosil bo‘lgan yotqiziqlar tarkibida kuzatiladi. Ba’zan botqoqlik yotqiziqlarida ham uchraydi.

Gips minerali kristallar, konkretsiyalar va qatlamchalar shaklida uchraydi. Odadta lagunalarda, ba’zan esa arid iqlimli oblastlardagi ko‘llarda hosil bo‘ladi.

Angidrit odatda yaxlit mayda donali to‘plamlar hosil qilib namoyon bo‘ladi; arid iqlimli oblastlardagi yopiq havzalarda hosil bo‘ladi.

Fosforit minerali (apatitning tuproqsimon, amorf va mayda kristalli xillari) konkretsiyalarda, psevdomorfozalarda va qatlamlarda uchraydi. Ham arid ham gumid iqlimli oblastlardagi dengizlar shelf zonalarining 100 m gacha bo‘lgan chuqurliklarda hosil bo‘ladi. Qatlam hosil qilgan fosforitlar odatda yopiq shelf zonalari uchun xos bo‘lsa, konkretsiya shaklidagi fosforitlar esa faqatgina ochiq shelfda emas, ba’zan lagunalar, ko‘rfazlar va bo‘g‘izlarda ham hosil bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Fosforitlarning katta to‘plamlar shaklida kuzatilishi o‘sha davrda quruqlikdan terrigen materiallar olib kelinishining sekinlashganligini ko‘rsatib turadi.

Vivianit cho‘kindi tog‘ jinslari tarkibida temir ma’dani bilan birgalikda tuproqsimon massa ko‘rinishida uchraydi. Mineral botqoqliklarda qaytaruvchi muhit sharoitida hosil bo‘ladi.

Tosh tuzi (galit) va kalyt tuzi (silvin) alohida kristallar shaklida ham va turlicha qalinliklarda qatlamlar ko‘rinishida ham kuzatiladi. Tuzlar yopiq dengizlarda, lagunalarda, arid iqlimning suv jadal bug‘lanuvchi sharoitlarida hosil bo‘ladi.

Shamozit mayda zarrali massalar va mikrokonkretsiya (loviyasimon va yumaloq donalar) shaklida temir va organik moddalar bilan to‘yingan alevrit-gilli dengiz yotqiziqlari tarkibida kuzatiladi. Hosil bo‘lishi tropik (?) zonalardagi dengizlarning 10-70 m chuqurligida kechadi.

Glaukonit mayda zarrali massalar va mikrokonkretsiyalar ko‘rinishida ochiq dengizlarning 300-500 m chuqurliklarida, epikontinental dengizlarning esa 100-200m chuqurliklarda hosil bo‘ladi. Glaukonitning shakllanishi dengiz tubi cho‘kmasi yuza qismining organik moddalar bilan to‘yinishi sharoitida kechadi. Glaukonit mineralining yaxshi rivojlanishi uchun keskin o‘zgarishlarsiz iliq iqlim, dengiz tubining pasttekislikdan iborat bo‘lishi, transgressiya va nurash jarayonining jadal kechishi lozimdir. Sayoz suvli zonada glaukonit o‘rniga shamozit hosil bo‘ladi.

Ratovkit flyuoritning tuproqsimon turi. Odatda dolomit, gips va angidratlar bilan birga uchraydi. Ratovkitning mavjudligi sedimentatsiya jarayoni kechayotgan havzada suvning sho'rligi darjasini yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Tog' jinslarining rangi

O'rganilayotgan tog' jinslarining rangi mazkur tog' jinslarining asosiy massasini tashkil etgan minerallar rangi bilan belgilanadi. Ba'zan ayrim mineralarning rangi yorqin bo'lsa, bunday mineralarning oz miqdorlarda mavjud bo'lishi ham tog' jinsining umumiy tusiga ta'sir etishi mumkin. Ko'p hollarda tog' jinsining rangi uning qanday sharoitlarda hosil bo'lishini ko'rsatishi mumkin.

Oq rang (ba'zan och kulrang) kremnezem, karbonatlar (kalsit, dolomit), sulfatlar (gips) va xloritlar (galit) guruhlari kabi cho'kindi hisilalar tarkibiga kiruvchi tog' jinslari minerallarining tabiiy rangi hisoblanadi. Qo'shimcha rang beruvchi mineral qo'shilmalar bo'lmasa, tog' jinslarining oq rangi birlamchi rang sifatida uzoq muddat saqlanib turadi.

Qora rang (ba'zan kulrang va to'q kulrang) ko'proq terrigen va karbonatli tog' jinslari uchun xos. Ushbu rangning namoyon bo'lishi tog' jinslari tarkibida uglerodli modda tarqalishi hamda unga hamroh tarzda temir va mis sulfidlarining mavjudligi bilan belgilanadi. Ushbu rangdagi tog' jinslari gumid iqlimli oblastlardagi yotqiziqlar uchun xosdir.

Yashil rang va uning turli ko'rinishdagi tuslari tog' jinslari tarkibida mavjud bo'lgan glaukonit, temir va ba'zan, mis zakislari birikmalari bilan bog'liqdir. Yashil rangli yoki tusli tog' jinslari ikkilamchi o'zgarishlarga uchramagan bo'lsa yoki uning tarkibida yashil rangli minerallar (xlorit, epidot, rogovaya obmanka kabi yashil rangli mineralarning varaqlari, donalari va bo'laklari) mavjud bo'lsa, bunday jinslardan iborat yotqiziqlar gumid iqlimli hududlarga xos hisoblanadi.

Qizil rang va uning turli tovlanishlari terrigen va karbonatli tog' jinslarda temir oksidlarining (ko'proq suvsiz hillarining) siyrak tarqalganligi bilan belgilanadi. Temir oksidalarining bunday birikmalari ham gumid va ham arid iqlimli hududlarda temirning yuqori miqdorlariga ega tub tog' jinslarining nurashi jarayonida

hosil bo'ladi. Ular aksariyat hollarda issiq va nam sharoitlarda hosil bo'luvchi elyuviy-lateritlarda to'planadi. Agar temir oksidlari bo'laklar shaklida, kolloidlar va eritmalar holatida tashilsa unda cho'kindining qizil rangi turli (arid, gumid) iqlimiylardan zonalardagi kontinental havzalarda yoki dengiz sharoitlarida mazkur temir birikmalarining cho'kmaga o'tishi bilan hosil bo'ladi. Shuni ta'kidlash lozimki, tog' jinslarining qizil rangi agar cho'kma oksidlovchi muhitda shakllangandagina saqlanib qoladi.

Qo'ng'ir va sariq rang turli tarkibdagi cho'kindi jinslarga xosdir. Ushbu ranglarning namoyon bo'lishi cho'kma cho'kish muhitida temirning suvli oksidlarining mavjudligi bilan belgilanadi va ba'zi omillariga ko'ra qizil rang hosil bo'luvchi sharoitlarda shakllanadi. Yana shunday taxmin ham borki, cho'kmaning birlamchi rangi sariq yoki qo'ng'ir bo'ladi va diagenezning keyingi jarayonlaridagina qizil rangga aylanadi.

Cho'kindi tog' jinslarining teksturaviy belgilari

Tog' jinslarini tarkib toptiruvchi bo'laklar (cho'kindi jinslarda) va kristallar (intruziv hosilalarda) turlicha yo'nalgan, har xil darajada taqsimlangan va ma'lum bir ko'rinishida o'zaro munosabatga kirishgan holda bo'ladi. Ushbu aytib o'tilgan belgilarning barchasi majmuaviy birlikda tog' jinsining teksturaviy xususiyatlarini tashkil etadi va ular quyidagilardan iborat.

a) Tog' jinslarining qatlamlanishi

Cho'kma cho'kish jarayonida kechuvchi o'zgarishlar yoki tanaffuslar cho'kindi tog' jinslarining qatlamlanishi xususiyatlarini keltirib chiqaradi.

Qiya qatlamlanish cho'kindi tog' jinslarining asosiy qatlamini chegaralovchi ostki va ustki yuzalariga nisbatan qatlamchalarining burchak ostida namoyon bo'lishi bilan belgilanadi. Bunday qiya qatlamlanish havo yoki suv oqimi ta'siri ostida hosil bo'ladi. Daryo va soylar oqimlari ta'sirida qiya qatlamlanish bir tomonga, xususan suv harakati yo'nalishi tomonga bo'ladi. Qiya qatlamlanish ko'lami deltalarda daryo o'zanidagiga qaraganda yirikroq bo'ladi. Dengizlarning qirg'oq bo'yli zonalarida esa qiya qatlamlanish kichikroq o'lchamlarda hosil bo'ladi va turli tomonga yo'nalgandir.

Eol tipidagi qiya qatlamlanish o‘zining alohida tartibsizligi bilan xarakterlanadi.

To‘lqinsimon qatlamlanish tog‘ jinslari qatlamlanishi yuzalarining to‘lqinsimon bukilishlaridan iborat. Ushbu xususiyat asosan dengizning qirg‘oq bo‘yi sayoz suvli zonasida, ya’ni to‘lqinlarning ta’sir etish sathi(il hosil bo‘lish chizig‘i)dan yuqorida suv harakatining davriy o‘zgarib turishidan hosil bo‘ladi.

Parallel qatlamlanish ham suvli muhitdagi to‘lqinlar faoliyatining ta’siri darajasi bilan bog‘liq holda shakllanadi. Tog‘ jinslari qatlamlarining o‘zaro parallel holda hosil bo‘lishi to‘lqinlar faoliyati ta’siri (il hosil bo‘lishi) sathidan quyida, ya’ni dengiz va ko‘llar suvlarining nisbatan harakatsiz muhitida ro‘y beradi. Qatlamlanishni hosil qiluvchi har bir qatlamning qalinliklari bo‘yicha yirik (ayrim qatlamlar qalinligi 1m gacha), mayda (1sm gacha) va yupqa (1mm gacha) qatlamlanishlar farqlanadi.

Qatlamlashmagan, ya’ni bir jinsli tekstura dengizdagi cho‘kma cho‘kish zonasining nisbatan sokin uchastkalarida hosil bo‘ladi. Quruqlikda hosil bo‘luvchi ayrim (muzliklar, elyuvial) yotqiziqlarda ham qatlamlanishlar kuzatilmaydi.

b) Qatlam yuzasidagi belgilar va izlar

Qurish ko‘pburchaklari va darzliklari asosan quruqliklarning taqir zonalarida (aksariyat cho‘l va dashtlarda) va dengizlarning yassi qirg‘oqlarida (suv qaytishi zonalarida) hosil bo‘ladi. Do‘l va yomg‘ir tomchilari izlari arid (issiq va quruq) iqlimli quruqliklarda va dengizlarning suv qaytishi zonalaridagi yotqiziqlar izlarida kuzatilishi mumkin.

Oqimlar novlari dengizning suv bosish-suv qaytishi zonalarida, ba’zan esa dengiz tubidagi oqimlar yo‘nalishi bo‘ylab hosil bo‘ladi.

To‘lqinlarda tebranayotgan suv o‘tlari va suzib yuruvchi predmetlarning izlari yoysimon va to‘g‘ri egatlar shaklida dengizlarning qaytishi zonalaridan quyida va ularning suv bosishi-suv qaytishi zonalarida shakllanadi. Hayvonlarning harakatlari va sudralib yurish izlari qurqlik yotqiziqlarida, dengizlarning suv bosishi-suv qaytishi zonalaridagi hamda tubidagi cho‘kmalarda qolishi mumkin.

Muz kristallari belgilari ayrim hollarda sovuq iqlimli oblastlardagi dengizlarning suv bosish-suv qaytish zonalarida shakllangan qatlamlarda kuzatiladi.

Gips va tuz kristallari izlari (yoki belgilari) arid iqlimli oblastlaridagi sho'r ko'llar va qurib borayotgan ko'rfazlar qirg'oqlarida hosil bo'ladi.

Qirg'oq to'lqin belgilari (ryablar) eol xarakteriga ega bo'lsa asimmetrik, past va cho'zinchoq shaklda bo'ladi va ular aksariyat arid iqlimli oblastlarda kuzatiladi. Daryolar ryablari ham asimmetriklik xossasiga ega, biroq eol ryablariga nisbatan biroz balandroq va qisqaroq shakllarda, ko'proq gumid (issiq va nam) iqlimli zonalarda kuzatiladi. To'lqinlarning simmetrik ryablari o'tkir cho'qqilarga va aylanasimon botiqliklar shakliga ega bo'lgani holida dengizlarning litoral (20-40 m chuqurliklarga), ba'zan esa 200 m chuqurlikkacha bo'lgan sublitoral zonalarida hosil bo'ladi. Bunday ryablar yirik ko'llar qirg'oqlari yotqiziqlarida ham kuzatilishi mumkin.

Toshqotgan organik formalar fatsial belgilar

Toshqotgan ko'pgina organik formalar o'zları yashagan muhitning tabiiy-geografik sharoitlari, o'zlarini qamragan yotqiziqlarning genezisi haqida ma'lumotlar berib fatsial belgilarni anglatuvchilar sifatida qo'shimcha axborot manbalari bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ushbu yo'l bilan axborot olish **bionomik tahlil** usuli deb ataladi.

Paleografik sharoitlarni qayta tiklash paytida, tosh qotgan organik formalar kompleksi o'rganiladi. Agar bunday kompleks bir tadqiqot hududida va bitta qatlamda qamralgan bo'lsa, mazkur organik formalar guruhi **oriktotsenoz** deb ataladi. Oriktotsenozni o'rganish paleobiotsenozni tiklashning assosidir va shu orqali geologik o'tmishda birgalikda yashagan organizmlar guruhi haqida ma'lumotlar beradi. Albatta, bu masalani hal etish anchagina murakkablikdan iborat. Biroq, ushbu amaliyotsiz mazkur organizmlar yashagan muhit xususiyatlarini anglash qiyin. Masalan, dengiz oriktotsenozini tahlil qilish davomida jonivorlarning bentos, plankton va nekton yashash tarziga mansublarini ajratish lozim bo'ladi. O'z navbatida, bentos organizmlarning mustaqil

harakatlanuvchilarini va o'zga turdag'i jonivorlarga yopishgan holda hayot kechiruvchilarini farqlash kerak. Keyin ularning tirik paytidagi holatlari, suyaklarining yemirilish darajasi, cho'kmaga ko'milguncha tashib kelingan masofasi aniqlanadi. Mana shu masalalar aniqlarganidan so'ngina alohida organizmlar turlarining yashash tarzi, paleobiotsenozning mavjudligi sharoitlari va niyoyat hududning geologik o'tmishdagi tabiiy – geografik muhiti xususiyatlari haqida fikr bildirish mumkin.

O'rganilayotgan hududning geologik rivojlanishi tarixini tiklayotgan tadqiqotchi eng avvalo, hududda kuzatilayotgan cho'kindi hosilalarning quruqlik sharoitidami yoki dengiz havzasida to'planganligini aniqlashi lozim. Kontinental yotqiziqlar quruqlikda yashovchi hayvonlar, chuchuk suvda hayot kechiruvchi umurtqasizlar (ikkitalabaqalilar, gastrapodalar va h.k.)ning tosh qotgan qoldiqlari hamda quruqliqda o'suvchi o'simliklarning qoldiqlari va ildizlari orqali aniqlanadi. Dengiz yotqiziqlarida esa dengiz jonivorlari va suv o'tlari qoldiqlari kuzatiladi. Agar ular orasida quruqlik o'simliklari qoldiqlari uchrasa, ularni dengizga daryo oqimlari olib kelganligi yoki shamol uchirib kelganligiga ishonch hosil qilish mumkin.

Ayrim o'simliklar va umurtqasiz hayvonlar guruhlarining hayot tarzi haqida ma'lumotlar

Ko'k-yashil suv o'tlari (sianofitlar) – mikroskopik o'lchamlarga ega, katta miqdorlarda keng tarqalgan o'simlik organizmlaridir. Ular suv havzalarida ham va quruqlik zonalaridagi turli sharoitlarda ham birday rivojlanishi mumkin. Suv o'tlari yashashi uchun quyosh nuriga muhtojlik sezadi, shuning uchun ham ular chuchuk suv havzalarining sayoz qirg'oqlarida, dengizlarning litoral va sublitoral (60 m gacha bo'lgan chuqurlik) zonalarida rivojlanadi. Suv o'tlari o'ta sho'rdan mutloq chuchuk darajadagi suvlarda hamda $-1,8^{\circ}\text{S}$ dan $+80,0^{\circ}\text{S}$ gacha bo'lgan harorat oraliq'ida yashashga moslashgan. Ularning ko'pchiligi kolonial tarzda yashaydi. Suv havzalarida rivojlanuvchi suv o'tlari ham bentos va ham plankton formalarida kun kechiradi. Karbonat ajratuvchi ko'k-yashil suv o'tlari katta ahamiyatga ega bo'lib, ularning hayot

faoliyati mahsulotlari bo‘lgan stromatolitlar va onkolitlar suv o‘tlarining sayoz dengiz sharoitida yashaganligidan darak beradi.

Stromatolitli qurilmalarni hosil qilishda sianofitlarning har-xil turlari birgalikda qatnashishlari mumkin, ular ajratgan karbonat mahsuloti suvdan cho‘kmaga o‘tgan bo‘lakli va zarrali mahsulotlarni sementlaydi. Stromatolitli qurilmalarning tashqi ko‘rinishi ko‘proq darajada suv oqimlari xarakteri va cho‘kma cho‘kish jarayonining jadalligiga, ichki tuzilishi esa suv o‘tlarining sistematik tarkibiga bog‘liq.

Kokkolitoforidlar oltinrang tusdagi suv o‘tlari guruhi tegishli bo‘lgan bir hujayrali mikroskopik planktonlardir. Asosan mezozoy va kaynozoy yotqiziqlarida keng tarqalgan tosh qotgan kokkolitoforidlar ekvatorial va iliq dengizlarning mikroplanktonlaridir. Hozirgi kundagi kokkolitoforidlar dengizlarning uncha katta bo‘lmagan chuqurliklarida +10°S dan +20°S gacha haroratlari kislrorodga boy va toza suvlarda yashaydi. Kokkolitoforidlarning ayrim turlari biroz sho‘rroq suv havzalarida ham yashashi kuzatiladi.

Yashil suv o‘tlari dengiz planktonlarining katta bir guruhi bo‘lib, tuzilishining turlicha ekanligi va yashil rangda namoyon bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Zamonaviy yashil suv o‘tlarining ko‘pgina turlari tropik va subtropik zonalardagi dengizlarning 50-60 m chuqurliklarida yashaydi, xarali suv o‘tlari guruhi esa chuchuk suvli havzalarda kuzatiladi. Sifoneyalar kabi ayrim suv o‘tlari o‘zidan karbonat ishlab chiqaradi va rif qurilmalarini hosil qilishda qatnashadi.

To‘q qizil rangli suv o‘tlari ko‘p hujayrali suv o‘simliklari guruhi bo‘lib, asosan meyordagi sho‘rlikka ega suv havzalarining 150 m gacha bo‘lgan chuqurliklarida hayot kechiradi. Ularning ayrim turlari, masalan, litotaminlar o‘zidan karbonat ajratib chiqaradi va rif qurilmalari shakllanishida qatnashadi.

Foraminiferalar hozirgi kunda ko‘llar, botqoqliklar va dengizlardan iborat barcha suv havzalarida uchraydi. Ular bentos va plankton xarakteridagi hayot tarzlariga ega. Dengizlarda foraminferalarning bentos shaklli dengizlar shelfining va kontinental qiyaligining barcha uchastkalarida, yana shuningdek, 5-10 km chuqurlikdagi okean tubida ham yashaydi. Qalin chig‘anoqli bentos shaklli paleozoy fuzulinidlari va kaynazoy nummulitidlari

iliq dengizlarning sayoz zonalarida (20-40 m) yashaydi. G'ovakli, yupqa chig'anoqli plankton shaklidagi dengiz foraminalerlarini dengiz oqimlari ularni turli zonalarga olib ketishi va ular har qanday chuqurliklardagi yotqiziqlarda ko'milib qolishi mumkin. Biroq foraminalerlar qoldiqlarini o'zida qamragan il cho'kmalari har holda okeanning pelagik oblastlariga xosdir va karbonatli chig'anoqlar erib ketishi mumkin bo'lgan "kritik" chegaragacha bo'lgan katta chuqurliklarda hosil bo'ladi.

Radiolyariylar – plankton organizmlar. Dengiz chuqurligini aniqlashda hech qanday rol o'ynamaydi. Biroq radiolyariyli illar ko'proq dengizning 4000 m dan ham chuqur bo'lgan tubida to'planadi. Iliq dengizlarda chig'anoqlar qalpoqcha, shlem yoki qirrali ignalari bo'lgan yassi qo'ng'iroq shaklida, sovuq dengizlarda esa-tor, minorasimon, to'g'nog'ichsimon yoki aylana kesimli ignali oddiy elliptik shaklda bo'ladi.

Arxeotsiatlar – erta kembriy dengizlarida yashagan va qirilib ketgan bentos, yolg'iz va kolonial yashagan jonivorlar. Iliq dengizlarning 20 m dan 100 m gacha bo'lgan sayoz uchastkalarida ko'proq karbonatli il cho'kmalarda yashagan. Ular rif hosil qiluvchi hisoblanadi.

Korallar – dengizlardagi bentos jonivorlar. Hozirgi kunda er yuzining turli kengliklaridagi dengizlarda uchraydi va suv sathidan 10 km gacha bo'lgan turli chuqurliklarda yashaydi. 180-550 m oralig'idagi chuqurlik ular uchun juda qulaydir va ushbu chuqurliklarda ular turli shakllarda va katta miqdorlarda uchraydi. Odatta tropik dengizlarda korallar ko'p bo'ladi. Dengizning 45 m gacha bo'lgan chuqurliklarida, suv harorati 18,5°S dan 36°S gacha bo'lgan sharoitlarda yashovchi kolonial koralli poliplar rif hosil qiluvchilar hisoblanadi. Rif hosil qiluvchi korallar paleozoyda ham (tabulyatalar, to'rt nurli korallar), mezozoy va kaynozoyda ham (oltinurli va sakkiz nurli korallar) ma'lum edi. Qadimgi geologik epoxalardagi va zamонавиy dengizlardagi rif hosil qilmaydigan koralli poliplar dengizning turli chuqurliklarida yashaydi.

Gastropodalar – aksariyati bentos jonivorlardir. Ular asosan dengizlarning qirg'oq bo'yalarida va sayoz uchastkalarida, me'yordagi va me'yorga yaqin sho'rlikdagi zonalarida yashaydi, faqat ayrim turlarigina abissal chuqurlikdagi zonalarga tusha oladi.

Gastropodalar, yana shuningdek, quruqlikdagi chuchuk suvli havzalarda va subaeral muhitlarda ham yashashi mumkin.

Ikkitabaqalilar – asosan dengizlarda, yana shuningdek, quruqliklardagi chuchuk suvli suv havzalarida yashovchi bentos organizmlar. Ko‘pchilik ikkitabaqalilar cho‘kmaga to‘liq ko‘miluvchi va yarim ko‘miluvchi turlarga mansubdir. Ayrimlari cho‘kmaga sementlashish yo‘li bilan (ustritsalar va rudistlar) yoki bissus yordamida birikadi. Toshteshar va yog‘ochteshar ikkitabaqalilar alohida guruhni tashkil etadi. Ikkitabaqalilar ko‘p miqdorda yashagan sovuq, biroz sho‘r, ba’zan esa chuchuk suvli dengizlarda ularning oila va tur tarkiblari bir xilligi bilan ajralib turadi. Iliq dengizlar uchun esa sementlashuv bilan birikkan turlarning rivojlanganligi xosdir. Ikkitabaqalilarning ayrim turlari dengizning bir necha ming metr chuqurligigacha tushsa ham, aksariyat miqdori havzalarning sayoz suvli oblastlari(sayoz shelf)da yashaydi.

Ammonoideyalar – hozirda qirilib ketgan stenogalinli harakatchan dengiz jonivorlari. Keng chig‘anoqqa va yassi qorincha yoki kuchli rivojlangan skulpturaga ega ammonoideyalar yarimo‘ralgan, konik-spiralli va noto‘g‘ri qayrilgan chig‘anoqlarga ega bo‘lib, dengiz tubida yashagan, disksimon chig‘anoqqa ega bo‘lganlari esa yaxshi suzuvchilar ham bo‘lgan. Paleozoy erasida gonianitlar dengizning uncha chuqur bo‘limgan sayoz shelflarida yashagan, ayniqsa, suv o‘tlari o‘sigan sokin suvli ko‘rfazlar va qo‘ltiqlar ularning hayot faoliyatları uchun juda ham qulaydir. Bulardan tashqari ammonoideyalar dengizlarning ochiq (okeanga tutash) oblastlaridan qochib rif qurilmalari yaqinida yashagan. Trias davriga kelib seratitlar dengizlarning teran chuqurliklarini egalladilar, yura va bo‘r davrlarida ammonitlarning ayrim guruhlari sayoz epikontinental dengizlarni ishg‘ol etdilar, boshqalari esa batial oblastlarda yashashga moslashdilar.

Belemnitlar – qirilib ketgan nektonli dengiz jonivorlari, ochiq dengizlar sharoitida yashagan va yaxshi suzuvchi jonivorlar bo‘lgan bo‘lsa kerak.

Tentakulitlar – qirilib ketgan pelagik dengiz jonivorlari. Ushbu organik formalar odatda me’yoriy sho‘rlikka ega dengizlarda yashagan. Jonivorlar o‘lganidan so‘ng ularning suyaklari turli fatsial

tipdag'i cho'kmalarga ko'miladi. Mazkur cho'kmalar esa dengiz-qirg'oq bo'y'i fatsial tipidagi sokin vaziyatlarda, ko'proq kislorod yetishmasligi yoki vodorodsulfidli sharoitlarda hosil bo'lувchi teransuvli fatsial tipgacha bo'lgan xillarga mansubdir.

Trilobitlar – qirilib ketgan dengiz tubi jonivorlari. Asosan sayoz suvli paleozoy dengizlarida yashagan.

Evripteridlar – qirilib ketgan bo'g'imoyoqlilar. Ushbu jonivorlarning ko'pchiligi yirtqichlardir va ko'rfazlarning chuchuk va sho'rroq suvlarida yashagan.

Ostrakodalar – hozirgi vaqtida dengiz havzalari, turli kontinental suv havzalarida (yer osti havzalari ham shu hisobda) va hatto quruqlikdagi namlik joylardan iborat turlicha sharoitlarda yashaydi. Dengiz ostrakodalari qirg'oq bo'y'i uchastkalarida, xususan, ayrimlari suv o'tlarida, qolganlari esa 200 m chuqurlikkacha bo'lan dengiz tubining turli uchastkalarida yashaydi. Ular asosan sudralib yuruvchi yoki ilga ko'milib oluvchi yashash tarziga ega va ozginagina qismi suza oladi. Ostrakodalar chuchuk va sho'r suvli ko'llarda, hovuzlarda, daryolarda va vaqtı-vaqtı bilan qurib qoluvchi havzalarda ham yashay oladi. Geologik o'tmishda ham ostrakodalar turlicha suv havzalarida yashaganlar.

Mshankalar – dengizlarda va chuchuk suvlarda yashovchi bentos organizmlardir. Hozirgi vaqtida dunyoning turli tomonlaridagi dengizlarda yashaydi. Qirg'oq bo'y'i zonalaridan 400-500 m gacha bo'lgan chuqurliklarda ularning mavjudligi kuzatiladi, teran chuqurliklarda kam uchraydi. Mshankalar evriterm jonivorlar hisoblanadi. Litoral zonalarda ular toshlar, suv o'tlari, chig'anoqlarga o'tiradi va butun ostki yuzalari bilan yopishib olib, o'sib turuvchi yapasqi koloniylar hosil qiladi. Sublitoralning sokin suvlarida yaproqsimon va to'rsimon koloniyalari rivojlanadi, shuningdek suvda erkin muallaq suzib turuvchi massivlar va shoxlangan shakldagi tanalarni ham hosil qiladi. Ko'pgina mshankalar karbonat ajratuvchi suv o'tlari bilan birgalikda riflar hosil bo'lishida qatnashadilar.

Braxiopodalar – dengiz bentos jonivorlari. Ular ko'proq stenogalin organizmlardir, biroq ularni biroz sho'rangan va chuchuklashgan havzalar yotqiziqlarida ham kuzatish mumkin. Zamonaviy braxiopodalar 0 m dan 5800 m gacha bo'lgan

chuqurliklarda yashaydi, biroq ularning bir qismi sayoz suvli zonalarda tarqalgan. Bir necha metrgacha bo‘lgan chuqurliklarda qalin devorli va o‘sma shaklida yopishib oluvchi kraniidlar, litoral zonada qumga ko‘milib oluvchi lingulidlar hayot kechiradi. Paleozoy erasida braxiopodalar o‘zining rivojlanish cho‘qqisiga erishdi va uncha chuqur bo‘limgan sayozliklarda asosiy hayot kechiruvchilardan bo‘ldi. Tropik dengizlarning to‘lqinlari faol ta’sir qiluvchi zonalarda yolg‘iz yashovchi korallarga konvergent o‘xshash bo‘lgan va o‘ziga xos qalin devorli o‘sma hosil qiluvchi formalar yashagan. Pentameridlar, ayrim produktidlar, spiriferidlar bir necha metrli chuqurliklarda o‘ziga xos koloniyalar tashkil qiladilar. Turg‘un suvli havzalarning anchagina teran uchastkalari uchun yupqa devorli silliq yoki sust burmali terebratulidlar, atiridlar va ayrim rinxonellidlar xarakterlidir.

Krinoideilar – biriktirilgan, ba’zan esa harakatchan dengiz jonivorlari. Paleozoyning dengiz liliyalari asosan me’yordagi sho‘rlikka ega dengizlarning qirg‘oq bo‘yi polosasining uncha chuqur bo‘limgan sayozliklarida yoki o‘rtacha chuqurliklarida mavjud bo‘lib, ko‘p hollarda rif hosil qiluvchi organizmlar bilan birga yashagan. Mezazoyda poyasimon krinoideilar dengizlarning nisbatan chuqurroq uchastkalariga ko‘chib o‘tib yashay boshladilar. Zamonaviy dengiz liliyalari qirg‘oq bo‘yi to‘lqin zonalaridan 9700 m gacha bo‘lgan turli teranliklarda yashaydi.

Dengiz tipratikanlari – stenogalinli harakatchan bentosli dengiz jonivorlari. Zamonaviy dengiz tipratikanlari turli kengliklardagi dengizlarda qirg‘oq – to‘lqin zonasidan abissalgacha bo‘lgan turlicha chuqurliklarda yashaydi. Biroq dengiz tipratikanlarining aksariyat ko‘pchilik qismi iliq dengizlarda va ularning biroz chuqurroq zonalarida yashaydi.

Graptolitlar – paleozoy dengizlari keng tarqalgan, planktonli, ba’zan bentosli dengiz jonivorlari. Jonivorlar o‘lganidan so‘ng ularning skeletlari turli chuqurliklarda hosil bo‘lgan har-xil fatsial tiplardagi yotqiziqlarda ko‘milib qolgan.

Tosh qotgan organizmlar qoldiqlarining qatlamlarda mavjud emasligi (“soqov” qatlamlar omili)

Tabiatda tosh qotgan organizmlar qoldiqlarini o‘zida qamramagan cho‘kindi tog‘ jinslari qatlamlari ham uchrab turadi. Bunday qatlamlar paleontologik “soqov” qatlamlar deb ataladi. Bunday stratigrafik birliklarning yuzaga kelishiga quyidagilar sabab bo‘lishi mumkin:

1) cho‘kma to‘planishining teran chuqurliklarda (batial) ro‘y berishi;

2) dengiz tubiga yaqin suvlarning vodorod sulfiddan zararlanishi;

3) suv osti vulqon faoliyati o‘choqlarining yaqin joylashganligi, buning natijasida suv haroratining oshishi va vulqon mahsulotlari bilan zaharlanishi;

4) suvli muhitning o‘ta sho‘rlanishi (“o‘lik” dengiz tipida);

5) cho‘kma cho‘kish jarayonining katta tezlikda ro‘y berishi;

6) cho‘kmaning tog‘ jinsiga aylanishi jarayonida jonivorlar chig‘anoqlarining erib ketishi;

Ushbu sabablarning qaysi biri ro‘y bergenligini litologik tahlil natijalari ko‘rsatadi.

Tosh qotgan organizmlarning qoldiqlari bo‘yicha qadimgi geologik epoxalarning tabiiy-geografik sharoitlarini aniqlash o‘ziga xos murakkab masaladir. Uni oydinlashtirishda litologik va paleontologik belgilar birgalikda kompleks o‘rganiladi va shuning asosida xulosa qilinadi. Ayniqsa, jonivorlarning sistematik tarkibi, ayrim guruhlarning boshqalariga nisbatan miqdor ko‘rsatkichi, suyakli jonivorlarning morfologik xususiyatlari, qoldiqlarning yo‘nalishi va saqlanishi darajasi, ularning tog‘ jinslarida tarqalishi tendensiyasi kabi masalalardan iborat paleontologik xususiyatlar masalani hal etishda alohida ahamiyat kasb etadi. Sanab o‘tilgan belgilardan alohida olingan har biri dengiz jonivorlari yashagan tabiiy sharoitlarni va shunga mos ravishda cho‘kma cho‘kishning o‘ziga xos jihatlarini aks ettirishi mumkin. Masalan, turlar tarkibining boy emasligiga quyidagilar sabab bo‘lishi mumkindir:

1) Havza suvi sho‘rlanishi darajasining o‘zgarishi (suvning chuchuklashishi yoki sho‘rlanishi);

- 2) Uncha chuqur bo'Imagan zonalarda suv haroratining keskin past bo'lishi;
- 3) cho'kma tushish havzasining katta chuqurlikka egaligi;
- 4) Havza tubidagi suv qatlamida kislorod miqdorining vaqtiga bilan pasayib turishi;
- 5) Havzada suvning yuqori darajada harakatlanib (to'lqinlanib) turishi va h.k.

Geologik kesmalarda yuqorida tavsiflanganidek "soqov" qatlamlarning

mavjudligi ham o'ziga xos geologik axborot manbayi bo'lib hududning geologik rivojlanish tarixini tiklashda o'ziga xos rol o'yndaydi.

Yotqiziqlarning fatsial belgilari.

Kontinental yotqiziqlar

Kontinentlarda qadimgi cho'kma cho'kish sharoitlarini tiklash uchun kontinental yotqiziqlarning litologik va bionomik xususiyatlari haqida bilimga ega bo'lish lozim.

Ko'l yotqiziqlari. Ushbu yotqiziqlar cheklangan ko'lamga ega. Ular uchun parallel holdagi, biroq yupqa xarakterdagi qat-qatlik xosdir, qiya qat-qatlik kam rivojlangan bo'ladi. Qalinliklari kichik miqdorlarda, cho'kmalar zonal holda joylashadi. Yotqiziqlar birinchi navbatda terrigen va karbonatli xarakterga ega. Kremniyli va boshqa tipdagi yotqiziqlar ham kuzatiladi. Terrigen jinslar galechniklardan gillargacha bo'lgan tog' jinslari qatoridan iborat, ular ichida kichik donali va zarrali yotqiziqlar ustunlik qiladi. Karbonatli jinslar xemogen (ohaktoshlar, dolomitlar, tuzlar, temir ma'dani, boksitlar va boshq.) va organogen (ohaktoshlar, yonuvchi slanetslar va boshq.) yo'l bilan hosil bo'ladi. Xemogen va organogen cho'kmalarning rivojlanishi birinchi navbatda iqlimiyl holatlar bilan bog'liq. Cho'kmalarning ko'llar uchun xarakterli bo'lgan zonal taqsimlanishi sayoz suvli dengizlar uchun ham xosdir. Biroq, qirg'oq va qirg'oq bo'yli yotqiziqlari kichikroq maydonlarda rivojlanadi, chunki il hosil bo'lish chizig'i anchagina sayozlikdan boshlanadi, qirg'oq bo'yli cho'kma cho'kish zonasidan teranlik zonasiga o'tish ancha keskin. Sho'r ko'llarning qirg'oq bo'ylarida il cho'kmalari

ustunlik qiladi. Zonaning chetki qismida erishi qiyin bo‘lgan, markazida esa eng ko‘p eriydigan tuzlar to‘planadi.

Botqoqlik yotqiziqlari ko‘llar yotqiziqlariga o‘xshash holda cheklangan tarzda tarqalgan bo‘lib, uncha qalin emas va parallel qatlamlanish xarakteriga ega. Cho‘kmalarning ko‘mirli ekanligi, ko‘mir va ba’zan siderit qatlamchalarining uchrashi, qumlar va galechniklarning yo‘qligi, cho‘kmaning zonal holda joylashmaganligi botqoqlik yotqiziqlarining o‘ziga xos xususiyati hisoblanadi.

Daryo allyuvial yotqiziqlari ko‘p hollarda cho‘zinchoq tasma (polosa) shaklida to‘planadi. Ba’zan akkumulyativ past tekisliklarda katta maydonni ishg‘ol qilib ham yotishi mumkin. Tog‘li daryolarning o‘zan yotqiziqlari shag‘al bilan galechnik aralashmasidan iborat, pasttekisliklar daryolarining o‘zanlarini esa turli o‘lchamlardagi qumlar tashkil etadi. Barcha o‘zan yotqiziqlari uchun qiya qatlamlilik va ryab belgilarning asimmetrikligi xosdir. Odatda galechniklarni tashkil etgan g‘o‘laktoshlarning yassi va cho‘zinchoqlarida uning uzun o‘qi daryo oqimi yo‘nalishiga perpendikulyar (ko‘ndalang) joylashgan bo‘lib yassi yuzasi oqim yo‘nalishiga qarama-qarshi qiyalangan bo‘ladi. Qayir yotqiziqlari asosan pasttekisliklar daryolari vodiylarida rivojlangan bo‘ladi. Juda kam hollardagina tog‘lar etaklaridagi daryolar vodiylarining kengina uchastkalarida ham kuzatilishi mumkin. Qayir yotqiziqlari o‘zan hosilalariga qaraganda mayda donali bo‘ladi va odatda alevrit va alevrit-gilli tarkibda bo‘ladi, qatlamlanishi ham ko‘p hollarda parallel, ba’zan qiya holda bo‘ladi, staritsa yotqiziqlari torf (ko‘mir) qatlamlarini qamragan gilli cho‘kmalardan iborat. Daryolar yotqiziqlari qalinliklari odatda uncha katta bo‘lmaydi.

Vaqtinchalik oqar suvlar yotqiziqlari keng shleyflar ko‘rinishida tarqalgan yoki tepaliklar etaklarida chiqaruv konuslarini hosil qilgan bo‘ladi. Ularning qalinliklari anchagina, yirik qatlamli yoki umuman qatlamlashmagan bo‘ladi. O‘lchamlari turlicha bo‘lgan donalardan iborat gilli qumtoshlardan tarkib topgan yotqiziqlar yaxshi saralanmaganligi bilan xarakterlanadi. Ko‘p hollarda boshqa tipdagи (daryolar, yonbag‘irliklar) yotqiziqlar bilan birgalikda namoyon bo‘ladi.

Kontinental yotqiziqlar sementlashgan qatlamlar holida bo‘lganida ularni turli genetik tiplarga ajratish qiyindir, bunday hollarda mazkur yotqiziqlarni genetik komplekslarga ajratish lozim bo‘ladi. Qирг‘оq bo‘yi tekisliklari relyefi katta maydonlarda yassi va pasttekislik holida ham bo‘lishi mumkin. Bunday vaziyatlarda hududning arzimagan cho‘kishi ham dengizning quruklik (materik) ichkarisiga yuzlab km larga kirib borishiga olib keladi. Yoki, aksincha, hudud ko‘tarilishining arzimas amplitudalarda ro‘y berishi ham katta maydonlarda dengiz suvining qochishi va quruqlikning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi . Ushbu hodisalarning takrorlanishidan dengiz va kontinental yotqiziqlar qatlamlarining almashinib yotishi yuzaga keladi. Kontinental yotqiziqlar orasida daryolar, vaqtincha oqar suvlar, ko‘llar (iqlimga bog‘liq holda tuz hosil qiluvchi yoki ko‘mir shakllanuvchi) va eol yotqiziqlari kabi hosilalar shakllanadi. Qирг‘оq bo‘yi tekisliklarida shakllangan yotqiziqlarning qalinliklari katta bo‘lishi mumkin. Organik qoldiqlar xarakteri, cho‘kmaning qatlamlanishi va tog‘ jinslarining rangi kabi xossalarning turlichaligi har xil genetik tipdagи yotqiziqlar bilan bevosita uzviy aloqadorlikda namoyon bo‘ladi.

Kontinental yotqiziqlar uchun bir qancha bionomik xususiyatlar xosdir. Quruqliklarda turli umurtqasizlar va tuban umurtqasizlar geologik o‘tmishda ko‘llar va daryolar, kamroq darajada botqoqliklar kabi suv havzalarini egallaganlar. Bunday suv havzalari atrofidagi quruqlikning pastqam va botiq uchastkalari o‘simliklar va quruqlik umurtqalilari rivojlanishi uchun eng qulay hududlar hisoblanadi. Xuddi shu omil bilan bog‘liq ravishda quruqlikning ko‘llari, daryolari va botqoqliklari yotqiziqlari ba’zan quruqlik jonivorlarining mo‘l qoldiqlarini (amfibiyalar, reptiliyalar va sut emizuvchilarining suyaklari), o‘simliklarning ko‘mirlashgan qoldiqlari izlarini va uyumlarini qamragan bo‘ladi.

Yuqorida tavsiflangan hosilalar, yana shuningdek, ikkitabaqalilar va gastrapodalar, chig‘anoqsimonlar, hasharotlar, baliqlar kabilarning tosh qotgan qoldiqlarini o‘zida qamraydi. Shuni ta’kidlash lozimki, qatlamlarda qamralgan fauna komplekslari qancha qari bo‘lsa, ularning chuchuk suvlar bilan aloqadorligini aniqlash shuncha qiyin bo‘ladi, umuman olganda, kontinental

yotqiziqlar dengiz hosilalariga qaraganda tosh qotgan fauna qoldiqlarini kamroq qamragan bo'ladi.

Quruqlik bilan dengiz oralig'idagi yotqiziqlar

Delta yotqiziqlari. Delta yotqiziqlari orasida sof quruqlik yotqiziqlari ham mavjud (suv sathidan yuqori qismi). Bularga qumlar, gillar, ba'zan galechniklar (g^o 'laktoshlar majmuyi) kiradi. Ushbu yotqiziqlar uchun qurish darzliklari, yomg'ir tomchilar izlari, jonivorlar izlari va hokazolar xosdir. Deltaning suv osti qismiga materiallari yaxshi saralangan qumlar va gillar, ohaktoshlar qatlamchalari va ularning qiya qatlamligi xosdir. O'rtacha kengliklardagi delta yotqiziqlari kulrang va qo'rg'ir rangga ega, tropik oblastlarda esa yorqin (yashil va qizil) tusga ega. Daryolar deltalarida odatda quruklikda yashovchi hayvonlar va o'suvchi floralarning, chuchuk suvda hayot kechiruvchi umurtqasizlarning oqim olib kelgan qoldiqlari ko'p to'planib qoladi. Xuddi shu yerlarda tosh qotgan dengiz jonivorlari ham uchrashi mumkin.

Lagunalar yotqiziqlari. Me'yorda sho'rangan yoki chuchuklashgan laguna (ko'rfaz)lar uchun il yotqiziqlari va mayda donali qumlarning hosil bo'lishi xosdir. Ular odatda kulrang tusda bo'lib, ko'mirlashgan va bitumlashgan bo'ladi, ba'zan vodorod-sulfidli muhitdan darak beruvchi pirit ham kuzatiladi, ohaktoshlar kam uchraydi.

Dengiz suvi muntazam kelib turuvchi va ayni paytda uzoq muddat davomida suv jadal bug'lanib turuvchi hududlarda sho'rangan lagunalar hosil bo'ladi. Bunday lagunalarda terrigan hosilalar mayda qumlar va gillardan iborat bo'lib, ularning miqdori qancha kam bo'lsa, hosil bo'layotgan tuzlar shuncha toza bo'ladi. Ularda ohaktosh-dolomit guruhi tog' jinslari hosil bo'lishini belgilab beruvchi xemogen cho'kmalar angidrit va gips, galit va karnallit qatlamchalari hosil bo'ladi.

Tropiklarda va me'yoriy iqlim zonalarida hukm suruvchi nam iqlim sharoitlarida lagunalar suvining chuchuklashishi kuzatiladi. Bunday lagunalarda quruqlikdan olib kelingan va organik modda bilan boyitilgan mayda donali qum va gilli material to'planadi. Bunday muhitga ega hududlar botqoqlanganda u yerda torf yoki

sapropeł qatlamchaları hosil bo'ladi. Laguna yotqiziqlarining qalnligi uncha katta bo'lmaydi.

Dengiz yotqiziqlari

Dengiz havzalari yotqiziqlarining fatsial tahlili mazkur dengizlar hukm surgan hududlar chegarasini belgilashga, yana shuniningdek, bionomik zonalarni aniqlashga imkon beradi. Qirg'oq chizig'ini ko'rsatib turuvchi litoral zona chegarasini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida zamonaviy dengiz havzalaridagi bionomik zonalarning eng xarakterli belgilari tavsifi keltirilmoqda. Ularni bilish qadimgi geologik o'tmishda mavjud bo'lgan sedimentogenez havzalaridagi bionomik zonalarni aktualizm usuli bilan aniqlashga imkon beradi.

Litoral - dengizning suv bosishi va suv qaytishi sathlari oralig'idagi zona. Organizmlarning o'ziga xos kompleksi bo'yicha litoral zonasini ekvatorga yaqin kengliklar dengizlarida yaxshi ifodalangan. Ushbu zonaning vertikal qalnligi 16 metr maksimal ko'rsatkichga ega, gorizontal kengligining eng katta ko'rsatkichisi esa dastlabki km lardir, litoralning o'rtacha kengligi 10-15 m oralig'ida. Cho'kmalarning akkumulyatsiyasi (to'planishi) yuz beruvchi ushbu zonada o'simliklar yaxshi rivojlangan bo'ladi.

Vaqti-vaqti bilan suv qaytishi va dengiz tubining ochilib qolishi, suvning qattiq to'lqinlanishi, suvning butun vertikal qalnligi bo'yicha yorug'likni yaxshi o'tkazishi, cho'kma xilining turli-tumanligi kabi xususiyatlar litoral zonaga xosdir va zona xususiyatlarining namoyon bo'lishi qirg'oq bo'yi quruqligining relyefiga va iqlimiga bog'liqidir.

Zonadagi g'o'lak toshlar (galechniklar) qatlami amalda "soqov" bo'ladi va epikontinental dengizlar qirg'oqlari bo'ylab kam kuzatiladi. Qirg'oq-to'lqin (priboy) zonasida rivojlangan qumlar qiya qatlamlanganligi, singan va silliqlangan chig'anoqlar to'planganligi, aksariyat hollarda katta qalnligi va il qatlamchalarining yo'qligi bilan xarakterlanadi. Il qatlamchalarining hosil bo'lmasligi yemirilish materiallarining doimo qayta-qayta yuvilib turishi bilan belgilanadi.

Qirg'oqda to'lqinlarning kelib urilishidan himoya qilingan joylarda hosil bo'lgan gil qatlamlari kichik qalnlikka ega, yaxshi

saralanmagandir (qum va graviy donalari uchrab turadi), odatda butumlashgan bo‘ladi. Gil qatlami ichida gil g‘o‘laktoshlari (“okatishi”) uchrashi mumkin, cho‘kma yuzida esa yomg‘ir tomchilari izlari, turli jonivorlar, shu jumladan, quruqlikda yashovchi, sudralib yuruvchi jonzotlarning izlari, qurish darzliklari va ko‘pburchaklari kuzatiladi.

Biogen yo‘l bilan hosil bo‘lgan ohaktoshlar ham litoral uchun xosdir. Foraminiferali ohaktoshlar yirik bentos formali dengiz jonivorlari chig‘anoqlaridan tarkib topgan. Chig‘anoqli ohaktoshlar esa turi chig‘anoqlarning to‘lqin kuchi ta’sirida sinishidan hosil bo‘lgan parchalaridan tarkib topgan. Koralli, mshankali va suv o‘tlaridan hosil bo‘lgan ohaktoshlar uncha chuqur bo‘lмаган va suvning to‘lqinlanishi jadal kechadigan sayozliklarda qirg‘oq riflarini hosil qiladi.

Litoralning bionomik belgilaridan biri cho‘kma tarkibida dengiz jonivorlari bilan birga quruqlikda yashovchi hayvonlar suyaklarining ham saqlanib qolishidir. Bundan tashqari ushbu zona uchun singan va silliqlangan chig‘anoqlar, qumlar, graviy bo‘laklari va g‘o‘lak toshlardan iborat qirg‘oq vallari, yana shuningdek, suv havzasi qirg‘og‘iga parallel holda hamda bir tartibli joylashgan chig‘anoqlar va organizmlarning turli qoldiqlarini qamragan yuvilish valiklari ham xosdir.

Litoralda yashovchi dengiz jonivorlarining hayot faoliyatları izlari litoral zonası cho‘kmasida go‘yoki muhrlanib qoladi. Bular qumni o‘yib kiruvchi dengiz qisqichbaqalari, turli chuvalchanglar, ikkitabaqalilar va qulfsiz braxiopodalar, toshteshar ikkitabaqalilar kabilarning uyalari, quruqlikda yashovchi umurtqalilar va qushlarning yumshoq gruntda qoldirgan izlaridir. Yolg‘iz yashovchi qisqichbaqalar uchun boshpana bo‘lib xizmat qiluvchi gastropodalar chig‘anoqlarining ma’lum bir joylari ishqalanishdan siyqalangan bo‘ladi.

Litoral zona organik dunyosi havza qirg‘og‘ining to‘lqin urilishiga chidamliligi va grunt holatiga bog‘liq. Litoralning qoyali qirg‘oqlari mo‘ylovli qisqichbaqalar bilan, yana shuningdek, gastropodalar, krablar, polixetlar, dengiz toshbaqalari, assidiyalar, foraminiferalar, yashil, qo‘ng‘ir va qizil suv o‘tlari (aksariyati karbonat angidrid ajratuvchi), korallar, gubkalar va mshankalar bilan

qoplangan bo'ladi. Kovakichlilar, gubkalar va mshankalar zonaning quyi qismida yashaydi va rif qoyalari hosil qilishda qatnashadi. Qumli va il-qumli litoralning organik formalari anchagina kambag'al, bu narsa, ayniqsa, to'lqin urib turuvchi plyajlarda yaqqol ko'rinadi, chunki bu yerlarda asosan yuksak qisqichbaqasimonlar, chuvalchanglar, gastropodalar va ikkitabaqalilarga kuzatiladi. To'lqinlar sust urib turuvchi uchastkalarda organik dunyo yuqorida sanab o'tilgan guruhlar bilan ifodalangan, biroq biroz ko'proq miqdorlarda uchraydi, bunday joylarda suv o'tlari paydo bo'la boshlaydi. Baliqlar esa litoralning deyarli barcha uchastkalarida yashaydi.

Sublitoral- shelf hududida suv sathidan 220 m chuqurlikkacha bo'lgan zona. Ushbu zonaning kengligi shelf kengligiga bog'liq. Sublitoral zonani shartli ravishda ikki qismga ajratish mumkin. Quyosh nuri yaxshi yorituvchi yuqori qismda kolonial korallar, ohaktoshli va boshqa suv o'tlari rivojlangan bo'ladi. Quyosh nuri yaxshi yetib bormaydigan va natijada kuchsiz yoritilgan quyi zona suv o'tlariga ancha kambag'aldir. Sublitoralning yuqori chegarasi turlar kompleksining almashinishi bilan belgilanadi. Bundan tashqari sublitoral zona cho'kma to'planishi yaxshi kechishi bilan ham xarakterlanadi.

Ushbu zonada shag'al hosilalar kam uchraydi, bu yerda odatda qumlar va il bilan to'ldirilgan g'o'laktoshlarning harakatsiz uyumi kuzatiladi. Qumlar biroz kengroq tarqalgan bo'lib, o'rtacha qalinlikka va parallel qatlamlanishga ega, qumlar o'rtacha va mayda donali.

Gil hosilalar keng rivojlangan bo'lib, katta qalinlikka va parallel qatlamlanishga ega. Sublitoral zonaning yuqori qismi odatda qumli, quyi qismi esa ohaktoshli xarakterga ega. Shelfning botiqlik uchastkalari (100 m dan chuqurlikda) ustida joylashgan suv havzalarida, dengiz tubi oqimlari shakllanmagan joylarda organik modda, kremnezem va kalsiy karbonat bilan boyigan qoramtilrangli il cho'kmalari to'planadi. Pirit kristallarining va suv o'tlari kabi o'ziga xos tosh qotgan organik formalarning kuzatilishi, plankton va turli dengiz tubi jonivorlariga boyligi tavsiflanayotgan yotqiziqlar uchun xarakterlidir.

Ushbu zonada ohaktoshlar xemogen hamda biogen yo'llar bilan hosil bo'ladi. korall ohaktoshlari sublitoralning yuqori zonasida yirik rif barerlarini hosil qiladi, undan quyida, 50 m chuqurlikkacha bo'lgan zonada esa turli iqlimiylar poyaslar va turlicha sho'rlik darajasidagi suvlarda shakllanuvchi suv o'tlari-mshankalardan hosil bo'lувчи rif qurilmalari kuzatiladi. Rif ohaktoshlari massivlik xususiyatiga ega hamda katta qalinliklar hosil qiladi, biroq uncha katta bo'lmagan maydonlarnigina egallaydi. Chig'anoqli ohaktoshlar dengiz tubi oqimlari olib kelgan turli o'lgan chig'anoqlardan yoki bir necha metr chuqurlikda, sublitoralning yuqori qismida katta koloniyalar (banklar) shaklida yashagan bir turdag'i bir xil chig'anoqlardan tashkil topgan.

Qatlamlashgan ohaktoshlar turli chuqurliklarda bo'lakli karbonatli materiallarning (masalan, rif massivlari atrofida) to'planishi, kimyoviy cho'kish yo'li bilan va nihoyat, yana dengiz jonivorlari suyakli organlari qoldiqlari to'planishi hisobiga hosil bo'ladi.

Hayvonot dunyosining turli tiplariga mansub bo'lgan dengiz jonivorlarining tosh qotgan qoldiqlarining mo'lligi, skeletlarining nisbatan yaxshi saqlanganligi, turli (qizil va yashil) karbonatli suv o'tlari qoldiqlarining mavjudligi kabi bionomik belgilari sublitoral zona uchun xarakterlidir.

Bir qancha xususiyatlarga ko'ra litoral va sublitoral zonalar shelfning sayoz qismiga to'g'ri keladi.

Epibatial – shelf hududidagi chuqurligi 200 m dan 500 m gacha bo'lgan zona, dengiz havzasida katta maydonlarda uzlusiz emas, balki laxtak holda (sporadik) joylashgan bo'ladi. Mayda terrigen va pelagik cho'kmalar (gemipelagik il hosilalari) aralashmasi, xuddi shuningdek, dengiz tubi faunasini tarkibining uncha boy emasligi va ularning nisbatan teranlikda yashashi tavsiflanayotgan psevdoabissal zona uchun xarakterli bo'lgan xususiyatlardir. Bularidan tashqari, mollyuskalar va dengiz tubida yashovchi boshqa organizmlar chig'anoqlarining yupqaligi, planktonli foramineferalar va boshqa organizmlar chig'anoqlarining cho'kmalar tarkibida bo'lishi kabi xossalalar ham psevdoabissal zonada kuzatiladi.

Batial – materikning suv ostidagi yonbag'ning 200(500) m dan 3000 m gacha bo'lgan chuqurlik zonasidir. Ushbu zonaning faunasini

turlari nisbatan xil emas va dengizning o‘ziga xos jonivorlari vakillaridan iborat. Batial zonaning yuqori chegarasi fauna turlarining almashinishi bilan belgilanadi. Batial yotqiziqlar tarkibi mayda zarrali ekanligi bilan ajralib turadi, bir tekis tarqalgan organik modda yoki pirit hisobiga il hosilalari aksariyat hollarda qora rangda bo‘ladi. Ushbu zonada ba’zan cho‘kmalarning denudatsiyasi va bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirilishi hamda loyqa oqimlarning ish faoliyati kuzatiladi.

Abissal – okean tubining 3000 m dan 6000 m gacha bo‘lgan teranlik zonasidir. Ushbu zonada kuzatiluvchi dengiz jonivorlari asosan okean teranliklarida yashovchi bo‘lib, endemik xarakterga egadir. Mazkur jonivorlar vakillari ko‘proq ignatanlilar, chuvalchanglar va bo‘g‘im oyoqlilardir. Abissal yotqiziqlar turli illardan va loyqa oqimlarning cho‘kmalaridan iborat. Foraminiferali il yotqiziqlar 3000 – 4500 m chuqurlikda to‘planadi va planktonli foraminiferalar, pteropodalar, ba’zan kokkolitoforidlar chig‘anoqlaridan tarkib topgan bo‘ladi va gilli materiallar qo‘sishimchasiga ega. Kremniyli (radiolyariyli va diatomitli) illar 4500 m dan ham katta chuqurliklarda tarqalgandir. Xuddi shu chuqurliklarda marganets va temirning yuqori miqdorlariga ega o‘ta yupqa qalinlikdagi qizil rangli gil yotqiziqlari hosil bo‘ladi.

Loyqa oqimlarning cho‘kmalari kontinental qiyaliklarning etaklarida va ehtimol, o‘ta teranlik jeloblarida (novlarida) to‘planishi mumkin. Yotqiziqlarning gradatsiali qatlamlanishi (ya’ni, terrigen yotqiziqlar bo‘laklarining o‘lchamlari kesmaning quyisidan yuqorisiga tomon kichrayib boruvchi cho‘kmalar pachkasining almashinib turishi), qatlamlar pachkasi kesmasida bunday qatlamlanishning qaytarilib turishi, zinchlashgan gillar bo‘laklarining va suv osti ko‘chkilari izlarining mavjudligi mazkur yotqiziqlar uchun xosdir.

Batial va abissal zonalar yotqiziqlari turli yoshdagi geologik hosilalar orasida nisbatan keng tarqalganlari hisoblanadi biroq, ularning qanday chuqurliklarda hosil bo‘lganligini aniqlash anchagina mushkul ishdir. Shuning uchun ham ushbu muammoni hal qilish mobaynida barcha litologik va bionomik belgilar kompleksini, tog‘ jinslarining makondagi holatini va ularning shu yoshdagi boshqa genetik tipga mansub hosilalar bilan nisbatini

hisobga olish lozim bo‘ladi. Flish yotqiziqlarning loyqa oqimlar faoliyati bilan bog‘liq holda hosil bo‘lganligi taxmin qilinadi.

Ushbu tipdagи zamonaviy yotqiziqlar uchun dengiz tubi jonivorlari qoldiqlarining umuman uchratilmasligi hamda plankton va nekton organizmlar qoldiqlarining mavjudligi xosdir. Paleontologik belgilar bo‘yicha teran chuqurliklar yotqiziqlarini ajratishda juda ehtiyyotkorlik bilan yondoshish lozim, dengiz tubi jonivorlari qoldiqlarining mavjud emasligi butunlay boshqa sabablar tufayli bo‘lishi ham mumkin. (Tosh qotgan organizmlar qoldiqlarining mavjud emasligi yoki “soqov qatlamlar” bo‘limiga qaralsin).

AMALIY TOPSHIRIQLAR

1 – topshiriq

Berilgan kesma tavsifi bo‘yicha stratigrafik ustun tuzish

Stratigrafik kesma tavsifi keltirilgan kuzatuv nuqtalaridan(KN) birini amaliy topshiriq sifatida olgan talaba 1:200000 miqyosda geologik xaritalar va ularga ilova tarzida geologik kesimlar tuzish yo‘l-yo‘riqlari ko‘rsatilgan me’yoriy talablarga muvofiq stratigrafik ustun tuzadi. (... betga qaralsin). Stratigrafik ustun standart sxema shaklida ushbu qo‘llanmada keltirilgan shartli belgilar yordamida tuziladi (ilovaga qaralsin).

Buning uchun standart o‘lchamdagи (20 x 30 sm) qog‘oz varag‘ida joylashtirish uchun maqbul bo‘lgan miqyos tanlanadi. Tanlangan miqyos bo‘yicha tuzilgan stratigrafik ustunning markazida 4 sm kenglikda ustun tushiriladi, mazkur grafada turli yoshdagi tog‘ jinslari qatlamlarining holati va o‘zaro nisbati, tarkibi va boshqa belgilari tegishli chiziqli shartli belgilar bilan ifodalanadi. Ushbu grafa l i t o l o g i k ustun deb ataladi. Litologik ustunda ajratilgan qatlamlar birliklari chap tomondagи umumiy stratigrafik jadval birliklariga bog‘lanadi, o‘ng tomonda esa har bir qatlamning qalinliklari ko‘rsatiladi, ularning litologik va paleontologik xususiyatlarining tavsiflari beriladi.

Stratigrafik ustun tuzayotganda har bir qatlamni tashkil etuvchi tog‘ jinslari nomlarini ketma-ket sanab o‘tish tartibiga e’tibor berish lozim. Ba’zan tog‘ jinslari tavsifida “argillit qatlamchalariga ega

qumtoshlar” kabi iborasi bilan turlicha tipdagи tog‘ jinslari ko‘lamlarining o‘zaro nisbati ko‘rsatiladi. Biroq, aksariyat hollarda, tog‘ jinslarining nomlari shunchaki sanab o‘tiladi, masalan, qumtoshlar, argillitlar, mergellar. Bunday tartibli sanashda qumtoshlar ko‘lamni bo‘yicha kesmada ustunlik qilishini, ular orasida argillit qatlamchalari tobe ko‘lamlarda mavjudligi va juda siyrak miqdordagina mergel qatlamchalari kuzatilishi anglashiladi.

2 – topshiriq

Yer po‘sti harakatlari ko‘lamini aniqlash maqsadida stratigrafik ustunni tahlil qilish

Birinchi amaliy topshiriqqa muvofiq tuzilgan stratigrafik ustun tadqiqot hududida Yer po‘sti harakatlarini o‘rganish uchun dastlabki ma’lumotlar manbayi bo‘lib xizmat qiladi.

Yer po‘sti vertikal harakatlar tarzida to‘xtovsiz tebranib turadi. Shu bilan bog‘liq tarzda Yer yuzining ma’lum bir hududi biror bir vaqt davomida quyidagi holatlarni aks ettiradi:

1) Hudud gipsometrik yuqori ko‘tarilgan va natijada nurab yuvilayotgan quruqlikni tashkil etadi;

2) Hudud cho‘kkan va kontinental yotqiziqlar hosil bo‘luvchi quruqlikning botiq qismidan iborat.

3) Relyef yuzasi dengiz sathidan pastda bo‘lib amalda dengiz tubini tashkil etadi va bu yerda dengiz yotqiziqlari hosil bo‘ladi.

Sharoitlarning almashinishi asta-sekin va to‘xtovsiz kechadi. Kesmada cho‘kmaning (tog‘ jinslarining) almashinishi izchil va uzlusiz ro‘y beradi, yoki bir-biridan yuvilish yuzalarini va nomuvofiqlik tekisliklari orqali kesmadagi qatlamlar o‘zaro keskin almashinib turadi. Turli tarkibli cho‘kmalardan ketma-ket hosil bo‘lgan qatlamlarda va yuvilish yuzalarida fatsial tahlil usulini qo‘llab tiklash mumkin bo‘lgan o‘zgarishlar o‘z aksini muhrlagan bo‘ladi.

Buning uchun stratigrafik ustunda(kesmada) aks etgan har bir qatlam, bir qatlamdan ikkinchisiga o‘tish xususiyatlari va boshqa xossalari o‘rganiladi hamda barcha qatlamlarning yoshi geoxronologik jadvaldagi vaqt birliklari bilan muvofiqlashtiriladi, ushbu amal bajarilgandan so‘ng o‘rganilayotgan qatlamlar stratigrafik birliklar maqomiga o‘tadi. Ushbu holatda Dunyo okeani

sathiga (hisob boshiga) nisbatan tadqiqot hududi yuzasining vaqt bo'yicha izchil holatini tiklashga harakat qilinadi. Odatda suv sathi yuzasiga nisbatan relyef yuzasi holatini chiziqli o'chovlarda ko'rsatishning imkonи bo'lmaydi, shuning uchun dengizning turli bionomik holatini quruqlikning botiqlik yoki qabariq(tepalik) hududlariga mansub ekanligini ko'rsatish bilan cheklanish mumkin.

Barcha olingan ma'lumotlarni paleogeografik egri chiziqlar shaklida aks ettirish lozim bo'ladi. Buning uchun abssissa o'qida vaqtning to'xtovsizligi xarakteridan kelib chiqib vaqt birliklarini tanlangan miqyos (bir xil uzunlikdagi birliklar yoki davr, epoxa va asr kabi vaqt birliklarining davomiyligini hisobga olgan holda) bo'yicha ajratiladi. Ordinata o'qida esa quruqlikning dengiz sathidan yuqoridagi **pasttekislik** zonasasi (cho'kindi to'planish uchastkalari) va **tog'lik** zonasasi zonasasi (nurash va mahsulotning tashilishi), dengiz sathidan quyida esa **litoral**, **sublitoral**, **psevdoabissal** va **batialning** yuqori qismidan iborat dengizning turli bionomik zonalari joylashadi. Keyin yer yuzasida (cho'kma cho'kish va nurash zonasida) har bir vaqt birligi uchun aniqlangan kuzatuv nuqtasi(KN) holatining grafikdagi o'rni belgilanadi. Tabiiyki, ushbu yo'l bilan aniqlangan nuqtalar qancha ko'p bo'lsa, paleogeografik holatni aks ettiruvchi egri chiziqning anqlik darajasi ham shuncha yuqori bo'ladi.

Biroq, tektonik harakatlar doim ham paleogeografik sharoitlarning o'zgarishlariga olib kelavermaydi va ushbu omilni ham diqqat markazida tutish lozim bo'ladi. Masalan, hududning kompensatsiyalanuvchi cho'kishi paytida paleogeografik sharoitlar uzoq muddat davomida yer po'stining anchagina cho'kishi ro'y bergenida ham o'zgarishlarsiz qolishi mumkin. Tadqiq etilayotgan kuzatuv nuqtasida yer po'sti vertikal harakatlari jarayoni kechishining haqiqiy holatini tiklash uchun hosil bo'lган yotqiziqlar qalinliklarini hisobga olish mumkin va shu asosdagina paleotektonik(epeyrogenik) egri chiziqni o'tkazish mumkin. Buning uchun har bir tanlangan vaqt birligining (asr, epoxa, davr va h.k.) oxirida paleogeografik egri chiziqdan, ya'ni, cho'kma cho'kish (sedimentatsiya) yuzasidan tanlangan miqyos bo'yicha vertikal yo'nalishda quyiga tomon mazkur vaqt birligidagi to'plangan yotqiziqlarning qalinligini (m larda) ajratish lozim. Keyingi vaqt

birligida, agar hududda yer po'stining cho'kishi uzliksiz davom etsa, hosil bo'lgan yotqiziqlar qalinligi ortib boradi. Yangi vaqt intervalining oxirida paleogeografik egri chiziqdan vertikal yo'nalishda quyiga tomon avval to'plangan hamda yangi hosil bo'lgan cho'kmalar qalinligi kichik bo'lsa epeyrogen egri chizig'i paleogeografik egri chiziqa deyarli parallel bo'ladi. Aks holda esa ular orasidagi masofa anchagina ortib egri chiziqlar bir biridan uzoqlashib boraveradi.

Shunday qilib, paleotektonik egri chiziq ko'rib o'tilayotgan vaqt birligi davomida yer po'stining vertikal harakatlari xarakterini aks ettirsa, paleogeografik egri chiziq xuddi o'sha vaqt birligi davomida yer yuzasining qanday holatda bo'lganligini ifodalab beradi.

3 – topshiriq

Litologik – fatsial kesma tuzish

Litologik – faSial kesmalarda ma'lum bir yoshdagи tog' jinslari hosil qilgan qatlamlardagi fatsiyalar nisbati aks ettiriladi va har bir alohida fatsiyaning litologik tavsifi beriladi. Shunday kesmada qadimgi relyef (paleorelyef) profili kabi paleogeografik omil elementi aks etishi mumkin.

Talabaga bir necha kuzatuv nuqtasidan o'tuvchi kesma chizig'i yo'nalishi taklif etiladi. Standart A4 formatidagi qog'oz varag'ida gorizontal miqyos xarita miqyosiga barobar bo'lgan, vertikal miqyos esa undan bir necha barobar kattaroq bo'lgan ko'lamlarda kesma tuziladi. Litologik-fatsial kesma xuddi geologik kesma kabi rasmiylashtiriladi. Kesma tuzish jarayoni quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1) Tadqiq etilayotgan yoshdagи tog' jinslari qatlamining ustki yuzasi bilan ifodalangan nolinchi chiziqda kesma chizig'i o'tuvchi nuqtalar tushiriladi;

2) Har bir nuqtadan vertikal tarzda quyiga tomon to'g'ri chiziq tushiriladi. Tegishli yoshdagи tog' jinslari qatlamlarining qalinligi tanlangan miqyos bo'yicha o'tkazilgan vertikal chiziqda belgilanadi. Ushbu yo'l bilan qatlaming ostki yuzasida bir qancha nuqtalarini belgilash mumkin; ushbu nuqtalarini tutashtiruvchi chiziq qatlaming ostki yuzasini ifodalovchi chiziq bo'ladi. Ayrim kuzatuv nuqtalarida

bizni qiziqtirgan tog‘ jinslari mavjud bo‘lmasligi mumkin, bunday hollarda yo‘qolib boruvchi qatlamni ikki kuzatuv nuqtalar orasidagi hududda ko‘rsatish mumkin, mazkur kuzatuv nuqtalari orasidagi masofada ko‘rib chiqilayotgan tog‘ jinslari bor bo‘lishi ham yoki mavjud bo‘lmasligi ham mumkin.

3) Har bir kuzatuv nuqtasida chiziqli shartli belgilardan foydalangan holda kichikroq ustunlarda o‘rganilayotgan (yoki berilgan) yoshdagi tog‘ jinslari qatlamining tuzilishi aks ettiriladi;

4) Har bir kuzatuv nuqtasidagi kesmalar qiyoslanadi, vaqt birligiga tegishli qatlam tarkibida bir xil litologik va paleontologik xususiyatlarga ega tog‘ jinslari uchastkalari (ya’ni fatsiya birliklari) ajratiladi. Ikki qo‘shti fatsiyalar o‘rtasidagi chegara qatlamning ostki va ustki yuzalariga perpendikulyar (tik) yo‘nalishdagi siniq chiziqlar bilan ifodalanadi.

5) Kesmada har bir fatsiyaning litologik va paleontologik xususiyatlari ko‘rsatiladi. Shuni esda tutish lozim bo‘ladiki, ko‘rilayotgan vaqt birligining boshlanishida har bir qatlamning to‘planishi barcha hududning asosi yuzasiga parallel holda (agar mazkur etapdagagi cho‘kindi to‘planishi jarayoni avvalgi etapdagagi jarayonni uzluksiz davom ettirayotgan bo‘lsa), yoki har bir yuqoridagi qatlam quyida yotuvchi qatlamdan kengroq maydonda tarqalgan bo‘ladi. Bunday holda dengiz transgressiyasi hududning botiq uchastkalaridan tepaliklar tomon yo‘nalgan bo‘ladi. Xuddi shunday vaziyat dengiz regressiyasi paytida va cho‘kma cho‘kish jarayonining uzluksiz kechishi davomida qatlamning ustki qismida ham kuzatiladi. Parallel qatlamlanishlarda bir uchastkadan ikkinchisiga tomon qatlam qalinligining o‘zgargan holatlarida kesmada aks etayotgan har bir qatlamning qalinliklarini ham proporsional ravishda o‘zgartirish lozim bo‘ladi.

6) Har bir fatsiyaning hosil bo‘lish sharoitlarini ko‘rsatish uchun litologik – fatsial xaritalar uchun qabul qilingan tegishli ranglarda o‘z navbatida, kesma ham bo‘yaladi.

7) Cho‘kmalar to‘planishi va yuvilishi jarayoni kechadigan **asos**(fundament) qavatni hosil qiluvchi va tanlangan vaqt intervalidan qariroq bo‘lgan barcha tog‘ jinslari to‘rsimon shakldagi chiziqlar bilan belgilanadi.

Litologik-fatsial kesmani litologik-paleogeografik xaritadan foydalangan holda ham tuzish mumkin. (№4 – amaliy topshiriqqa qaralsin). Bunday hollarda ko‘rib o‘tilayotgan vaqt birligi sifatida mavjud bo‘lgan paleorelef profili bilan kesmani to‘ldirish tavsiya etiladi. Mazkur profil paleorelefning fatsiyalari va barcha paleogeografik sharoitlari tahliliga asoslanuvchi eng umumiy tasavvurni aks ettirishi lozim. Quruqlikning tog‘lik zonasini balandligini +200 m dan yuqori, tepaliklardan iborat va yuvilishi mumkin bo‘lgan quruqlik zonasini 0 m dan +200 m oralig‘ida, kontinental cho‘kma cho‘kish oblastini 0 m, ya’ni dengiz sathi bilan teng deb, shelfning sayoz (litoral va sublitoral) qismini 0 m dan -200 m gacha, shelfning chuqur (psevdoabissal) qismini -200 m dan -500 m gacha bo‘lgan deb shartli ravishda qabul qilish mumkin.

Qatlarning ostki yuzasini aniqlashda qatlam qalinligining alohida burg‘u quduqlari yoki tabiiy ochilmalaridan ma’lum bo‘lgan ko‘rsatkichlarigina emas, balki ularning izopaxitlari (bir xil qalinliklar chiziqlari) ham hisobga olinishi kerak. Kesma yo‘nalish chizig‘ida joylashgan biror kuzatuv nuqtasida ochilgan qatlarning qalinligi paleorelefning profilidan tanlangan vertikal miyosda ajratiladi. Kesma yo‘nalishi chizig‘i bilan fatsial chegaralarning kesishish nuqtasini xaritadan topamiz, kesmaning tegishli joyiga tushiramiz. Keyingi amaliy qadamlar esa yuqoriroqda tasvirlangan tarzda ketadi.

4 – topshiriq

Litologik – paleogeografik xarita tuzish va uning tahlili

Alovida olingen va iloji boricha, eng qisqa geologik vaqt birligi davomida mavjud bo‘lgan yuvilish va cho‘kma cho‘kish oblastidagi tabiiy-geografik sharoitning shartli belgilar orqali aks ettirilishi **paleogeografik xaritadir**.

Odatda, paleogeografik xaritalar zamonaviy topografik asoslarda tuziladi. Geologik solnomaning (qatlamlar ketma-ketligi izchilligining) to‘liqsizligi tufayli paleogeografik xaritalar anchagina gipotetik (taxminiy) xarakterda bo‘ladi, shuning uchun ham ular uchun birlamchi geologik xaritalar miyosidan 2-5 marta kichik miyos tanlanadi. Qanchalik ashyoviy dalillar (tog‘ jinslarining tabiiy va sun‘iy ochilmalari) miqdori ko‘p bo‘lsa, paleogeografik

xarita aniqligi va ishonchliligi shunchalik yuqori bo‘ladi. Ayni paytda, daliliy ma’lumotlar tadqiqot hududida bir tekis tarqalgan bo‘lsa, ushbu omil ham paleogeografik xaritaning obyektivligi yuqori bo‘lishini ta’min etadi. Aniq daliliy materiallarni taxminiy ma’lumotlardan to‘liq ajratib qarash lozim bo‘ladi, chunki paleogeografik xarita muhim geologik hujjat bo‘lib, ushbu asosda hududda foydali qazilma konlari mavjudligi bashorat qilinib ularni qidirish yo‘llari tavsiya etilishi mumkin.

Paleogeografik xarita quyidagi ketma-ketlikdagi bosqichlarda tuziladi:

1) tadqiq etilayotgan tog‘ jinslari qatlamlari kesmasida o‘rganilayotgan vaqt intervaliga mansub bo‘lgan stratigrafik birliklar ajratiladi.

Ushbu jarayonda nisbiy yoshni aniqlashda yordam beradigan barcha paleontologik va nopalaeontologik usullardan, xuddi shuningdek, radiogeoxronologik usullardan ham foydalaniлади;

2) bir xil yoshga mansub, biroq turli fatsiallikka ega tog‘ jinslari komplekslari tarqalgan maydonlar aniqlanadi, ulardan fatsiyalar ajratiladi va fatsial tahlil o‘tkaziladi. Bunda tog‘ jinslarining tarkibi, ularning strukturaviy va teksturaviy xususiyatlarini o‘rganish (litologik tahlil), tog‘ jinslarida saqlanib qolgan tosh qotgan hayvon qoldiqlarini har tomonlama chuqur tadqiq etish (biologik tahlil) orqali tanlangan vaqt birligi davomida cho‘kma cho‘kishning shart-sharoitlari haqida ma’lumot beruvchi fatsial belgilarning o‘ziga xos xususiyatlari aniqlanadi va geologik o‘tmishdagi vaqt birligining fatsial sharoitlari tiklanadi;

3) aktualizm tamoyilining zamonaviy rivojlangan ko‘rinishi bo‘lgan qiyosiy-tarixiy usulga asoslangan holda qadimgi quruqlikdagi (yuvilish va cho‘kma cho‘kish oblastlaridagi) va turli dengiz havzalaridagi tabiiy-geografik vaziyat tiklanadi.

Paleogeografik xaritada turli ranglar bilan me’yoriy sho‘rlikka ega ochiq dengizlar, ichki dengizlar, yuqori sho‘rlikka ega ko‘rfazlar, lagunalar, vaqt-i-vaqt bilan dengiz suvi bosib turuvchi qirg‘oq bo‘yi pasttekisliklari hamda materik ichkarisidagi past tekisliklar, chuchuk suvli ko‘llar va botqoqliklar, tog‘li zonalar etaklari va boshqalar ajratilib bo‘yaladi. Paleogeografik xaritalar geologik o‘tmishning biror vaqt birligi davomidagi tabiiy-geografik

sharoitlarning mutloq aksi emas, balki Yer yuzasining o'rganilayotgan hududi rivojlanishining biror bir muddatli bosqichida mavjud bo'lgan sharoitlarning o'rtacha holatinigina belgilab beradi, zarur hollarda esa ko'rib chiqilayotgan vaqt bosqichi davomida paleogeografik sharoitlarning davriy o'zgarib turuvchi uchastkalarini hudud xaritasida belgilashga imkon beradi.

Qadimgi dengiz havzalarini qayta tiklash. Ushbu maqsad yo'lida dastlab suv havzasi qirg'oqi aniqlanadi. Ushbu amal litoral zonada hosil bo'lgan yotqiziqlar yoki litoralning boshqa begilari mavjud bo'lsagina mumkin bo'ladi. Agar havza qirg'og'iga tutash quruqlik tepalikdan iborat bo'lsa, litoral zona kengligi (taklif etilayotgan 1:200000 miqyosda) juda kichik bo'ladi va suvlik bilan quruqlik chegarasi litoral yotqiziqlari mavjud bo'lgan kuzatuv nuqtalaridan o'tkaziladi. Qirg'oqqa tutash quruqlikning rel'efi yassi tekislikdan iborat bo'lsa, litoral zona anchagini keng bo'ladi va qirg'oq chizig'i holati ham shunga monand ravishda unchalik aniq ifodalanmagan bo'lishi mumkin, bunday hollarda qirg'oq chizig'i o'tishi mumkin bo'lgan zonagina ajratiladi. Bulardan tashqari dengiz tubi relyefi va havza chuqurligi ham aniqlanadi. Geologik o'tmishda cho'kindi yotqiziqlar hosil bo'lgan havzalar chuqurliklarini metrlarda aniqlash juda murakkab bo'lib hozirgi vaqtida ham kamdan kam yehiladigan muammodir. Paleogeografik xaritada sayoz shelf (litoral, sublitoral, chuqurligi 0 m dan 200m gacha), chuqur shelf(psevdoabissal, chuqurligi 200 m dan 500 m gacha) va kontinental qiyalikni (batial, chuqurligi 500 m dan quyida) aniqlash kerak bo'ladi. Bundan tashqari, havzaning fizik-ximik rejimi (sho'rlik darajasi, gaz va harorat ko'rsatkichlari) va unda hukm surgan gidrodinamik vaziyatni (to'lqinlar, havza tubidagi oqimlar va ularning yo'nalishlari) ham aniqlash va o'rganish zarur bo'ladi.

Dengiz havzasi sho'rligini aniqlash. Hozirgi kunda dengiz suvining sho'rliги 3,5% yoki 35 %. Ushbu ko'rsatkichning geologik o'tmishda biroz o'zgacha bo'lgan bo'lishi ehtimol. Agar cho'kindi qatlamlarda sistematik tarkibi boy va turlicha bo'lgan faunalar kompleksi saqlanib qolgan bo'lsa, bunday havza suvining sho'rligini me'yoriy deb hisoblash mumkin. Bunday sharoitlarda yashagan faunalar kompleksi dengiz jonivorlari olamining turli tiplari vakillaridan, ayniqsa, hozirgi kunda stenogalinli deb ataluvchi

(boshoyoqli mollyuskalar, ignatanlilar, rif hosil qiluvchi korallar, pteropodalar va h.k.) dengiz jonivorlaridan iborat bo‘ladi. Havza suvining sho‘rlik darajasi me’yoriy ko‘rsatkichdan pasaysa (suv chuchuklashsa) yoki yuqori bo‘lsa (ya’ni sho‘rligi oshsa) muhitdagi fauna sistematik tarkibining kambag‘allahuviga, ayrim turlar vakillari skulpturasining deformatsiyalanishiga (o‘lchamlarining kichrayib borishi, skulpturasining soddalashuviga) olib keladi. Bunday havzalarda hosil bo‘lgan cho‘kmalarda stenogalinli organik formalar bo‘lmaydi, biroq evrigalinli (ikkitabaqlilar, gastropodalar va h. k.) formalar keng rivojlangan bo‘ladi. Evrigalinli dengiz jonivorlari uchun ularning umumiy miqdorlari juda ko‘p bo‘lgani holida oila va tur tarkibining bir xilligi xosdir.

Paleontologik ma’lumotlar bo‘yicha havzaning chuchuklanuvchi yoki sho‘rlik darajasi ortib boruvchi ekanligini aniqlash anchagina mashaqqatli ishdir. Me’yoriy sho‘rlik darajasida yashovchi dengiz jonivorlari miqdorining asta-sekin qisqarib borishi va umuman yo‘q bo‘lib ketishi, turlarining kam bo‘lsa ham umumiy miqdorining ko‘p bo‘lgani holida chuchuk va yarim chuchuk suvlarda yashashga qodir formalarning paydo bo‘lishi havza suvining chuchuklashib borganligidan darak beradi. Chuchuklashgan dengizlarda riflar mavjud bo‘ladi, biroq ularni korallar ishtirok etmagan holida suv o‘tlari va mshankalar hosil qiladi. Sho‘rlanib borayotgan dengizlarda organizmlarning ommaviy qirilishi kuzatiladi va bo‘g‘imoyoqlilarning ayrim turlarigina yuqori sho‘rlangan suvlarda yashab qolishi mumkin. Litologik ko‘rsatkichlar paleontologik ma’lumotlar bilan birgalikda qadimgi dengiz havzalaridagi sho‘rlanish xarakterini aniqlashtirishga imkon beradi. Koralli rifogen ohaktoshlarning mavjud emasligi yoki umuman ohaktoshlar xilmayxillingining kamayishi (faqt chig‘anoqlar va gilli xillarining saqlanib qolishi) havza suvining chuchuklashib borishidan darak beradi. Tog‘ jinslari qatlamlari orasida gips va angidritning mavjudligi, hamda kesmada dolomitlar va dolomitlashgan ohaktoshlarning kuzatilishi ushbu geologik hosilalar paydo bo‘lgan o‘tmishdagi havzalarning sho‘r suvli bo‘lganidan guvohlik beradi.

Iqlimiylarini aniqlash. Dengiz suvining harorat rejimi havzaning bevosita geografik holatiga (kenglik zonalligiga) bog‘liqdir. Hozirgi vaqtida ekvatorial oblastlardagi dengizlarning

yuza qismidagi harorati $27\text{-}30^{\circ}\text{C}$ ga etadi. Agar ekvatoridan shimolga va janubga tomon uzoqlashib borgan sari suvning harorati pasayib boradi, qutbga yaqin va qutb zonasida esa hatto 0°C dan ham pastga tushib ketadi. Suv haroratining pasayishi chuqurlik bilan bog'liq holda ham yuz beradi. Tropik oblastlarda ham suvning harorati 1000 m chuqurlikda $4\text{-}5^{\circ}\text{C}$, katta chuqurliklarda hatto $1,87\text{-}2^{\circ}\text{C}$ teng.

Suvda yashovchi jonivorlar uchun suv haroratining nisbatan yuqori bo'lishi juda qulaydir, chunki bunday sharoitda organizmlarda va atrof muhitda kechuvchi barcha hayotiy jarayonlar jadal yuz beradi. Shuning uchun ham iliq va sovuq suvli dengizlarda yashovchi organizmlar komplekslari sifat va miqdor jihatidan bir-biridan farq qiladi.

Iliq suvli (tropik) dengizlar uchun fauna va floraning turlicha ekanligi va bir-biriga bog'langan ustritsalar to'plami – ustritsalar bankining mavjudligi xarakterlidir. Ustritsalar hozirgi iliq dengizlarning sayozliklaridagi qoya toshlarda yashaydi. Ular 21°C dan past bo'lgagan haroratda ko'payadilar. Xuddi shunday va shunga yaqin sharoitlar mezozoy va kaynozoyda ham hukm surgan bo'lsa kerak deb taxmin qilish mumkin. Tashib keltirilgan chig'anoqlar uyumidan farqli ravishda ustritsalar banki asosan bir turga mansub jonivornarning yaxlit chig'anoqlaridan iborat, bunday uyumlardagi chig'anoqlarda tashib keltirilganlik izlari va mexanik saralanish belgilari kuzatilmaydi. Iliq suvli dengizlar uchun rif hosil qiluvchi korallarning mavjudligi xosdir, chunki zamонавиy kolonial korallar faqatgina tropik dengizlarning suv harorati $18,5\text{-}36^{\circ}\text{C}$ gacha bo'lgan zonalarida yashaydi. Devorlari qalin va yirik burmali chig'anoqlarga ega dengiz tubi umurtqasizlari ham iliq dengizlarga xos. Katta miqdorlardagi va har xil turga mansub planktonli foraminiferalar va bir hujayrali suv o'tlari- kokkolitoforidlar (ba'zan yoziluvchi bo'r sifatidagi tog' jinsining butun bir qatlamlarini hosil qiluvchilar) yoki qalpoqcha, shlyom, qirrali ignalarga ega yassi qo'ng'iroqlar shaklidagi chig'anoqlarga ega radiolyaridlar ham iliq suvli tropik dengizlarda o'sishidan darak beradi.

Sovuq dengizlar uchun har xil oilalarga mansub turlar vakillarining xilma xilligi yuqori bo'lgani holida alohida tur tarkibining nisbatan kambag'alligi, dengiz tubi jonivorlari chig'anoqlarining yupqa devorga egaligi va kuchsiz rivojlanganligi

xosdir. Bunday dengizlar suvining kalsiy karbonatga to‘yinganligi kuzatiladi, buning oqibatida jonivorlarning qattiq karbonatli skeletlar hosil qilish qobiliyatları susayadi. Bundan tashqari, plankton jonivorlar orasida kremniyli qobiqqa ega bir hujayrali diatomli suv o‘tlarining serobligi, radiolyariylar oilasi va turi tarkibi ancha kambag‘alligi kuzatiladi.

Iliq suvli havzalarda ham va sovuq suvli dengizlarda ham yashovchi suyakli jonivorlarning tosh qotgan qoldiqlari bir vaqtning o‘zida va birgalikda uchrashi qadimgi dengizlarning yuza suvlarida harorat yuqori bo‘lgani holida cho‘kma cho‘kish jarayoni mazkur dengizlarning teran chuqurliklarida ro‘y bergenligidan darak beradi.

Dengiz oqimlari yo‘nalishlarini aniqlash. Dengiz tubida hukm suruvchi oqimlar o‘lgan jonivorlar chig‘anoqlarining dengiz tubida tartibli yotqizilishini ta’min etadi. Agar kosasimon yoki taqsimchasimon, qavariq-botiqli chig‘anoqli dengiz tubida qabariq tomoni bilan yotsa, unda chig‘anoqning qalin tomoni oqimga qarshi yo‘nalgan bo‘ladi. Chig‘anoqlarning bo‘rtgan joylari mavjud bo‘lsa, mazkur bo‘rtmalar ham odatda doimo oqimga qarshi yo‘nalgan bo‘ladi. Silindrsimon yoki cho‘zinchoq konussimon shaklga ega jonivorlar (ortotseratitlar, tentakulitlar, belemnitlar va ba’zi boshqa jonivorlarning chig‘anoqlari) tashilish paytida havza tubiga ishqalanmasa, asos qismi (ingichka tomoni) bilan oqimga qarshi holda, agar dengiz tubida yumalab harakatlansa, ya’ni tashilsa, asos qismi bilan oqim yo‘nalishida yotib qoladi. Havzaning nisbatan katta chuqurliklarida (chuqur shelf zonasida) dengiz tubi oqimlari o‘z yo‘nalishlarini uzoq vaqt saqlab qoladi. Bunday oqimlarning mavjudligini ketma-ket keluvchi qatlamlardagi chig‘anoqlarning bir xil yo‘nalganligi ko‘rsatib turadi, havzaning sayoz zonalarida esa suv oqimlari o‘z yo‘nalishlarini tez-tez o‘zgartirib turadi va buning oqibatida, ikkita ketma-ket yotuvchi qatlamlarda qamralgan chig‘anoqlar turlicha yo‘nalgan bo‘lishi mumkin.

Qadimgi quruqlikni tiklash. Ushbu jarayonda, avvalo, yuvilish (turlicha xarakterdagи materiallarning ham doimiy va ham vaqtinchalik yuvilish oblastlari) va akkumulyatsiya (to‘planish) oblastlari aniqlanadi. Relyefning aniqlanishi, qadimgi daryolarning joylashishi, ularning oqim yo‘nalishlari va dengizga quyilish joylari (deltas), ko‘l va botqoqliklarning holati, shamol yo‘nalishi, iqlimiylar

zonallik va yana shunga o'xshash omillarni aniqlash quruqlikni tavsiflashdagi asosiy ko'rsatkichlardir.

Iqlimiylar sharoitlar tavsifi. Qadimgi kontinentlarda hukm surgan iqlim qanday bo'lganligini tosh qotgan va muhrlangan o'simliklarning tur tarkiblari va morfologik xususiyatlari bo'yicha aniqlanadi. Tosh qotgan o'simlik tanasida yillik halqalarning yo'qligi, o'simliklar barglarining mayda yaproqlarga ajralib ketganligi va o'ziga xos alohida ildiz sistemasiga ega ekanligi qadimgi iqlimning issiq va nam (tropik) xarakterda bo'lganligidan darak beradi. Me'yoriy iqlim sharoiti daraxt tanasidagi yillik halqalar mavjudligi, daraxt barglarining to'kilishi va barglarining sust tarmoqlanishi bilan belgilanadi.

Paleogeografik xarita tuzishdan oldin o'rganilayotgan yoshga mansub tog' jinslarining litologik turlari rivojlangan maydonlari aniqlanadi va turlicha oriktotsenozlar aks ettirilgan xarita tuziladi. Ushbu aniqlangan omillar paleogeografik sxemalar asosida yotadi va bundan hosil bo'lgan natijalar **litofatsial qurilma** yoki **fatsiyalar xaritasi** deyiladi. Xaritadagi turli shartli belgilar tog' jinslarining turli xillari, oriktotsenoz tarkibi, foydali qazilmalar, o'ziga xos xarakterli minerallar mavjudligi, tog' jinslarining rangi va teksturaviy xususiyatlari haqida tasavvur beradi. Xaritada alohida shartli belgilar bilan esa rif massivlari, vulqon qurilmalari va boshqa shunga o'xshash obyektlarning joylashish holatlari ko'rsatiladi. Ayrim hollarda paleogeografik xaritalarda yuqorida keltirilgani kabi daliliy materiallar ham aks ettiriladi, bunday xaritalar litologo-paleogeografik sharoitlarni tiklashda asos bo'lувchi ma'lumotlarga egaligi bilan ajralib turadi. Ba'zi litologo-paleogeografik xaritalarda teng qalinliklar chiziqlari (izopaxitlar) bilan ifodalangan tog' jinslari qalinliklari haqidagi ma'lumotlar ham aks ettiriladi.

Har bir talaba zamonaviy topoasosda tog' jinslari kuzatilgan va tavsiflangan kuzatuv nuqtalari (tabiiy ochilmalar, tog'-kon qazilma lahimplari, burg'u quduqlari) joylashgan sxema-planga (ilova №...ga qaralsin) va bunga qo'shimcha tarzda kuzatuv nuqtalaridagi tog' jinslarining stratigrafik kesmasi tavsifiga ega bo'ladi. Ayni paytda har bir talaba uchun alohida vaqt intervali belgilab beriladi, ushbu vaqt birligi uchun talaba tomonidan paleogeografik xarita tuzish

talab etiladi. Buning uchun quyidagi amallar bajarilishi lozim bo‘ladi:

1) Berilgan vaqt birligiga mansub tog‘ jinslarining tarqalish hududlari aniqlanadi va fatsiyalar ajratiladi. Chiziqli shartli belgilar bilan xaritada aks etgan hudud zonalarida rivojlangan tog‘ jinslarining (cho‘kindi hosilalarning) asosiy tiplari belgilanadi, bunga qo‘srimcha tarzda tog‘ jinslari va tosh qotgan jonivorlar qoldiqlarining o‘ziga xos xususiyatlari haqida ham ma’lumotlar aks ettiriladi;

2) Tog‘ jinslarining litologik tahlili amalga oshiriladi;

3) Tosh qotgan organizmlar qoldiqlari bionomik tahlil etiladi. Buni amalga oshirish uchun ushbu qo‘llanmaning “Fatsial tahlil” bo‘limidagi ma’lumotlardan va ehtiyoj tug‘ilsa, tavsiya etilgan tegishli ilmiy va o‘quv manbalaridan foydalaniladi;

4) O‘rganilayotgan hududning berilgan tegishli vaqt birligidagi (geologik o‘tmishdagi) paleogeografik vaziyati tiklanadi va u xaritada aks ettiriladi. Ushbu amalni bajarishda umum qabul qilingan tamoyillardan va maxsus ishlab chiqilgan ushbu qo‘llanmaning ilova qismida aks ettirilgan shartli belgilardan foydalaniladi. Xaritada aks ettirilayotgan hududning turli paleogeografik zonalari tegishli ranglarda ifodalanadi, bundan tashqari ayrim qo‘srimcha paleogeografik vaziyatlar (shamol yo‘nalishi, bo‘lakli materiallarning tashilishi yo‘nalishi va h.k.) ham qayd etiladi.

5) O‘rganilayotgan tog‘ jinslari komplekslarining qalinliklari va mazkur o‘lchamlarning tadqiqot hududining turli zonalarida qanday o‘zgarishlari (teng qalinliklar chiziqlarini, ya’ni izopaxitlarni o‘tkazish usuli yordamida) aniqlanadi;

6) Paleogeografik vaziyatni tavsiflash (o‘qituvchi ko‘rsatgan maxsus talablar va ko‘rsatmalar asosida).

Yuqorida ko‘rsatilgan bandlarning talaba tomonidan izchil va puxta bajarilishi fatsial xaritaning obyektiv tarzda tuzilishini, hududning o‘rganilayotgan geologik o‘tmishdagi paleogeografik sharoitlarining yuqori darajada aniqlanishini ta’min etadi.

5 – topshiriq

“Geoxronologik shkala tuzish” mavzusida topshiriqlarni bajarish uchun

Y o‘ r i q n o m a

4 soatdan iborat amaliy mashg‘ulotlar mobaynida talabalar butun dunyo uchun umumiyligi bo‘lgan geoxronologik shkala tuzadilar. Bunda xalqaro xronologik va ularga mos holdagi stratigrafik birikmalarni ajratib ko‘rsatadilar. Har bir davrning davomiylik muddati va o‘zaro nisbatini aks ettirish tanlangan maqbul miqyos orqali amalgalashadi.

Xalqaro vaqt birliklari va ularga mos keluvchi qatlam birliklari nomlari ma’no jihatidan tahlil etiladi. Mazkur vaqt va qatlam birliklari kimlar tomonidan va qachon ajratilganligi, ushbu birliklarning o‘ziga xos asosiy xossalari oolib beriladi. Qabul qilingan vaqt birliklari qanday ranglar bilan belgilanishi ko‘rsatib beriladi.

Adabiyotlar:

1. Гречишникова И.А., Левицкий Е.С., Практические занятия по исторической геологии. М.: «Недра», 1979.
2. Геологический словарь, том II, Москва, 1973.
3. Степанов Д.Л., Месежников М.С., Общая стратиграфия, Ленинград, «Недра», 1979.

6 – topshiriq

“Berilgan ma’lumotlarga asoslanib stratigrafik ustunlar tuzish” mavzuida topshiriqlarni bajarish uchun

y o‘ r i q n o m a

6 soatdan iborat ushbu mashg‘ulotlar davomida talabalar berilgan stratigrafik kesmadagi qatlamlar tavsifiga asoslanib, mavjud yo‘riqnomaga muvofik stratigrafik ustun tuzadilar. Bunda umum qabul qilingan va darslik va qo‘llanmalarda keltirilgan shartli belgilardan foydalanadilar. Talabalar mustaqil ravishda eng maqbul miqyosni tanlab, tog‘ jinslarining turli yoshdagini qatlamlarining holati va miqdoriy nisbatlarini ustun markazida aks ettiradilar. Mazkur ajratilgan qatlamlarni ustunning chap tomonidagi umumiyligi stratigrafik shkalaning biriklariga mos ravishda bog‘laydilar, o‘ng

tomonida esa qatlamlarning qalnligi, ularning litologik va paleontologik xossalari tavsiflaydilar. Ustun tuzish mobaynida qatlamlarni hosil qiluvchi tog' jinslarining nomlarini ko'rsatish tartibiga e'tibor berish lozim, ya'ni qatlamdagи miqdori (qalnligi) katta bo'lган tog' jinsi birinchi bo'lib sanaladi, qolganlarining nomi ham qalnligi (miqdori)ning kamayib borishi tartibida keltiriladi.

Qatlamlar tavsifi quyidan yuqoriga tomon berilgan.

Adabiyotlar:

1. Гречишникова И.А., Левицкий Е.С. Практические занятия по исторической геологии. М.: «Недра», 1979.

2. Инструкция по составлению и подготовке к изданию листов государственной геологической карты СССР м-ба 1:200000, М.: «Недра», 1969

7 – topshiriq

“Stratigrafik ustun asosida paleogeografik sharoitni tiklash” mavzusida topshiriqlarni bajarish uchun

Y O' R I Q N O M A

Mavzuga muvofiq avvalgi mashg'ulotda tuzilgan stratigrafik ustun yer po'stida kechgan tektonik harakatlar asos qilib olinadi. Epeyrogen harakatlar natijasida yer po'sti quyidagi uch holatda bo'lishi e'tiborga olinadi:

1. Yuqori ko'tarilgan va kuchli yuvilish jarayoni ro'y beruvchi quruqlik holati;

2. Cho'kkан va asosan kontinental yotqiziqlar to'planishi ro'y beruvchi quruqlikning pasttekislik holati;

3. Quruqlikning mutloq balandligi dengiz sathidan past bo'lган va odatda dengiz transgressiyasi ro'y bergen holati; bunda asosan dengiz cho'kindi yotqiziqlari hosil bo'ladi.

Stratigrafik kesmadagi mazkur uch holatning birortasiga mos keluvchi cho'kindi yotqiziqlar qatlamlari ajratiladi. Ushbu ma'lumotlar paleogeografik egri chizigi shaklida aks ettiriladi. Buning uchun koordinatalar sistemasining x-absissa o'qida ixtiyoriy miqyosda davomiyligini e'tiborga olgan holda geologik davrlar, epoxa va asrlar (geoxronologik vaqt birliklari) belgilanadi, u-ordinata o'qida esa 0 (m) dan quruqlikning past tekislik (kontinental

yotqiziqlar hosil bo‘luvchi) zonasasi va kuchli yuvilish jarayoni ro‘y beruvchi yuqori ko‘tarilgan zonasasi belgilanadi. 0(m)-dan quyida esa dengizning cho‘kindi yotqiziqlari hosil bo‘luvchi litoral, sublitoral, psevdobissal va batialning yuqori qismidan iborat zonalar ajratiladi. Yer yuzining (cho‘kma cho‘kish va yuvilish yuzalarining) har bir geoxronologik vaqt birligiga mos keluvchi nuqtalar holati grafikda mos keluvchi nuqtalar bilan belgilanadi. Ushbu nuqtalarni birlashtiruvchi egri chiziq o‘rganilayotgan hududning paleogeografik egri chizigi deyiladi.

Adabiyotlar:

1. Гречишникова И.А., Левицкий Е.С. Практические занятия по исторической геологии. М.: «Недра», 1979.
2. Рухин Л.Б. основы общей палеогеографии. Л Госгеолтехиздат
3. Страхов Н.М. Типы литогенеза и их эволюция в истории Земля. М.: Гостеолтехиздат, 1963.

8 – topshiriq

“Bir nechta stratigrafik kesmalarining o‘zaro korrelyasiya sxemasini chizish” mavzusidagi topshiriqlarni bajarish uchun Y O‘ R I Q N O M A

Ushbu mashg‘ulotda talabalar o‘zlariga berilgan bir necha kuzatuv nuqtasidagi stratigrafik kesmalar tavsifi asosida tuzilgan stratigrafik ustunlarni qiyoslaydilar (korrelyatsiya qiladilar). Qiyoslanayotgan stratigrafik ustunlardagi bir xil litologik tarkibli yoki paleontologik qoldiqli qatlamlar belgilanadi, ya’ni har bir stratigrafik ustundagi o‘xshash fatsiyalar aniqlanadi. Qiyoslanayotgan stratigrafik ustunlardagi o‘xshash fatsiyalar tutashtiriladi. Mashg‘ulotda amalga oshirilgan korrelyatsiya sxemasi va boshqa qurilmalar keyingi topshiriqni amalga oshirish uchun asos bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. Гречишникова И.А., Левицкий Е.С. Практические занятия по исторической геологии. М.: «Недра», 1979.

2. Бондаренко О.Б., Михайлова И.А. Краткий определитель ископаемых беспозвоночных. М: «Недра», 1969.

3. Маслов В.П. Атлас породообразующих организмов (известковых). М.: Наука, 1973.

9 – topshiriq

“Berilgan ma’lumotlarga asoslanib paleogeografik xarita tuzish” mavzusida topshiriqlarni bajarish uchun

Y O’ R I Q N O M A

Berilgan hudud geologik rivojlanishining alohida vaqt birligida cho’kma cho’kishi va yuvilishi oblastlaridagi fizik - geografik vaziyat aks etgan xarita paleogeografik xarita deyiladi. Mashg’ulot mavzusiga muvofik, shunday paleogeografik xarita tuzishlari uchun har bir talabaga avvalgi mashg’ulotlarda tuzgan stratigrafik ustunlar punktlari ko’rsatilgan hudud xaritasi beriladi. Paleogeografik xarita tuzish uchun talabalar quyidagi amaliyotni bajarishlari lozim:

1. Berilgan geologik yoshdagи tog‘ jinslari tarqalgan maydonlarni belgilash va tog‘ jinslari fatsiyasini aniqlash. Imkonи boricha tog‘ jinslari va tosh qotgan organik qoldiqlarning o’ziga xos xususiyatlari aniqlanadi.

2. Cho’kindi tog‘ jinslari qatlamlari bo‘yicha litologik tahlil qilinadi.

3. Qatlamlarda saqlanib qolgan tosh qotgan hayvonlar qoldiqlari bo‘yicha bionomik tahlil o’tkaziladi.

4. Hududning paleogeografik vaziyati tiklanadi va sxema (topa asos)da aks ettiriladi.

5. Stratigrafik ustunda ko’rsatilgan tog‘ jinslari komplekslari qalinliklari hisobga olinadi, ushbu qalinliklarning hududning turli uchastkalarida o’zgarishlari izohlanadi.

6. O‘qituvchining ko’rsatmasiga muvofiq mazkur hududning paleogeografik vaziyati bayon etiladi.

Tayyorlangan paleogeografik xarita boshqa chizmalar bilan birgalikda o’rganilayotgan «Stratigrafiya asoslari» kursining amaliy mashg’ulotlari bo‘yicha yakuniy ish sifatida topshiriladi.

Adabiyotlar:

1. Михайлова Н. А. Методика составления крупномасштабных метолого-фациальных и палеогеографических М.: Наука, 1973
2. Рухин Л.Б. Основы общей палеогеографии. Л. Госгеолтехиздат, 1962
3. Гречишникова И.А.Левицкий Е.С. Практические занятия по исторической геологии М.: «Недра», 1979

Yakuniy nazorat ishi

“tadqiqot hududining paleogeografik xaritasiga hisobot”

mauzusida topshiriqni bajarish uchun

Y O' R I Q N O M A

Avvalgi amaliy mashg'ulotlarda bajarilgan JN topshiriqlarning yakuni bo'lib, tadqiqot hududining geologik o'tmishdagi vaqt birliklaridan birida yuzaga kelgan paleogeografik sharoit aks ettirilgan xarita yuzaga kelgan. Talaba o'qituvchi tomonidan uning o'zigagina berilgan vaqt birligi bo'yicha paleogeografik sharoit aks ettirilgan xaritaga hisobot tayyorlaydi. Ushbu hisobotda hududning qaysi qismida nurash jarayonlari ro'y berganligi va buning oqibatida hosil bo'lgan nurash mahsulotlarining yuvilib qaysi yo'nalish bo'yicha tashilganligi, hududning qaysi qismida yotqizilganligini ifodalaydi. Cho'kma cho'kish havzasida hosil bo'lgan yotqiziqlar tarkibi, mazkur yotqiziqlar qatlamlari orasida saqlanib qolgan tosh qotgan organik qoldiqlar turlariga qarab o'sha cho'kma cho'kish havzasining fatsial sharoitini bayon qilib beradi.

Adabiyotlar:

1. Гречишникова И.А., Левицкий Е.С. Практические занятия по исторической геологии. М.: «Недра», 1979.
2. Рухин Л.Б. основы общей палеогеографии. Л. Госгеолтехиздат
3. Страхов Н.М. Типы литогенеза и их эволюция в истории Земля. М.: Госгеолтехиздат, 1963.

Kuzatuv nuqtalarida kesmalarining qatlamlar bo'yicha tavsifi.

Amaliy topshiriqlarni bajarish uchun daliliy materiallar

Qatlamlar kesmasini tavsiflash jarayonida odatda konkret qatlamni tashkil etuvchi tog' jinslari o'rtasidagi nisbat ham ko'rsatiladi. (masalan: argillit qatlamchalariga ega ohaktoshlar). Biroq, ko'p hollarda tog' jinslari o'rtasidagi o'zaro nisbat ko'rsatilmasdan, ular faqat sanab o'tiladi, xolos. Bunday holatlarda kesmada sanab o'tilayotgan qatlamlar tartibi ularning hajmiy ko'lamlariga muvofiq keladi (masalan: "qumtoshlar, ohaktoshlar va argillitlar" deb sanalgan bo'lsa, kesmada qumtoshlar ko'lami bo'yicha eng ustivor, ohaktoshlar undan kamroq miqdorlarda, argillitlar esa eng kichik qalinliklarda kuzatilayotgan bo'ladi). Quyida kuzatuv nuqtalari(KN) bo'yicha qatlamlar ketma-ketlikda tavsiflanadi. Tavsif kesmaning quyi qismidagi eng qari tog' jinslari qatlamlaridan boshlanadi va yuqoridagi yosh qatlamlar tomon davom etadi.

1-1 lova

KN-1

1-qatlam. $D_3 fm_1$. Quyi paleozoyning notekis yuzasiga o'simliklar qoldiqlari va chig'anoq parchalari uyumlariga ega alevrolitlar va yirik donali qumtoshlar yotadi; korallar va mshankalarga ega gilli ohaktoshlar gorizontlari. Qalinligi-15 m.

2-qatlam. $S_1 v_2$ 1-qatlamning yuvilgan yuzasiga quruqlik o'simliklari qoldiqlariga ega qiya qatlamlı qumtoshlar va alevrolitlar yotadi. Qalinligi-30 m.

3-qatlam. $S_1 s_1$ Qumtoshlar va ohaktoshlar qatlamchalariga ega ohaktoshlashgan argillitlar; qatlamlanish parallel holda; temirli oolitlar, shamoxit; mshankalar, krinoideyalar. Qalinligi-75 m.

4-qatlam. P 3-qatlamning yuvilgan yuzasiga ohaktosh qatlamlari yotadi. Qalinligi-20 m.

KN-2

1-qatlam. $D_3 fr_1$. Siyrak siderit g'o'ddalariga ega argillitlar; o'simliklar va ikkitabaqalilar qoldiqlariga ega alevrolitlar va qumtoshlar qatlamchalari. Qalinligi-94m.

2-qatlam. D_3 fr₂. Chuvalchanglar izlari va mshankalar qoldiqlariga ega gilli va dolomitlashgan ohaktoshlarning almashinib yotuvchi qatlamlari.Qalinligi-23 m.

3-qatlam. D_3 fm₁. Dengiz faunasi qoldiqlari mo'l bo'lgan argillitlar, gilli va dolomitlashgan ohaktoshlar. Qalinligi-40 m .

4-qatlam. D_3 fm₂. Ohaktoshlar, mergellar va argillitlar; ikki tabaqalilar, mshankalar, korallar, Chuvalchanglar izlari. Qalinligi-110 m.

5-qatlam. C₁ t₁,Braxiopodalar qoldiqlariga ega ohaktoshlar va dolomitlar. Qalinligi-57 m.

6-qatlam. C₁ t₂. Ohaktoshlar, qumtoshlar va argillitlar; qatlamlanish parallel holda; glaukonit; braxiopodalar qoldiqlari. Qalinligi- 50 m.

7-qatlam. C₁ v₁. To'q-kulrang qumtoshlar va alevrolitlar, ba'zan quruqlik o'simliklarining ko'mirlashgan qoldiqlariga ega.Qalinligi-10 m.

8-qatlam. C₁ v₂.Qumtoshlar qatlamchalariga ega kulrang argillitlar; braxiopodalar, o'simliklar qoldiqlari. Qalinligi-15 m.

9-qatlam. C₁ s₁.Oolitli ohaktoshlar linzalariga ega mayda donali kvarsli qumtoshlar. Qalinligi-23 m.

10-qatlam. P.9-qatlamning yuvilgan yuzasiga yotuvchi ohaktoshlar qatlami. Qalinligi-22 m.

KN-3

1-qatlam. D₃ fr₁.Alevrolitlar va qumtoshlar qatlamchalariga ega argillitlar; quruqlik o'simliklari va ikkitabaqalilar qoldiqlari.Qalinligi-130 m.

2-qatlam. Mshanka qoldiqlariga ega va o'zaro qatlamlanib yotuvchi gilli va dolomitlashgan ohaktoshlar. Qalinligi-19 m.

3-qatlam. D₃ fm₁. Ayrim joylari bitumlashgan va piritlashgan ohaktoshli argillitlar va gilli ohaktoshlar; tentakulitlar. Qalinligi-39 m.

4-qatlam. D₃ fm₂. Ohaktoshlar, mergellar va argillitlar; braxiopodalar, mshanka, korall va krinoidealarning mo'l qoldiqlari. Qalinligi-170 m.

5-qatlam. $C_1 t_1$. Qatlamlanishi o‘zaro parallel bo‘lgan ohaktoshlar va dolomitlar; ilxo‘r-chuvalchanglar izlari va braxiopodalar qoldiqlari. Qalinligi-170 m.

6-qatlam. $C_1 t_2$. Kulrang ohaktoshlar va argillitlar; alohida korallar va mshankalarning mo‘lgina qoldiqlari. Qalinligi-35 m.

7-qatlam. $C_1 s_1$. 6-qatlamning yuvilgan yuzasiga quruqlik o‘simliklari qoldiqlariga ega qiya qatlamlashgan yirik donali qumtoshlar yotadi; asimmetrik ryab belgilari. Qalinligi-15 m.

8-qatlam. P . 7-qatlamning yuvilgan yuzasiga ohaktoshlar yotadi. Qalinligi-33 m.

KN-4

1-qatlam. $D_3 fr_1$. Sideritning siyrak g‘o‘ddalariga ega argillitlar; o‘simliklar va ikki tabaqalilar qoldiqlarini qamragan alevrolitlar va qumtoshlar qatlamchalari. Qalinligi- 160 m.

2-qatlam. $D_3 fr_2$. Braxiopodalar qoldiqlarini qamragan ohaktoshlar va gilli ohaktoshlarning o‘zaro almashinib yotuvchi qatamlari; ohaktoshli argillitlar; pirlarning sochilib yotgan kristallari; ikki tabaqalilar qoldiqlari siyrak kuzatiladi. Qalinligi-27m.

3-qatlam. $D_3 fm_1$. Ayrim joylarda bitumlashgan ohaktoshli argillitlar va gilli ohaktoshlar; tentakulitlar. Qalinligi-73 m.

4-qatlam. $D_3 fm_2$. Kulrang ohaktoshlar, mergellar va argillitlar; dengiz umurtqasizlarining ko‘plab qoldiqlari. Qalinligi-187 m.

5-qatlam. $C_1 t_1$. Ohaktoshlar va dolomitlar; braxiopodalar va mshankalarning mo‘lgina qoldiqlari. Qalinligi-230 m.

6-qatlam. $C_1 t_2$. Oqish tusdagi ohaktoshlar va argillitlar; alohida korallarning va mshankalar massasining qoldiqlari. Qalinligi- 27 m.

7-qatlam. $C_1 v_2$. 6-qatlamning yuvilgan yuzasiga quruqlik o‘simliklari qoldiqlariga ega qiya qatlamlı kulrang ohaktoshlar va alevrolitlar yotadi. Qalinligi-15 m.

8-qatlam. $C_1 s_1$. Qiya qatlamlı yirik donali qumtoshlar; quruqlik o‘simliklari qoldiqlari; asimmetrik ryab belgilari. Qalinligi-25 m.

9-qatlam. P . 8-qatlamning yuvilgan yuzasiga ohaktoshlar yotadi. Qalinligi-50 m.

KN-5

1-qatlam. $C_1 v_2$. Quyi paleozoyning notekis yuzasiga o'simliklarning ko'mirlashgan qoldiqlarini qamragan qiya qatlamlashgan kulrang qumtoshlar alevrolitlar yotadi. Qalinligi-25 m.

2-qatlam. $C_1 s_1$. Qumtoshlar va ohaktoshlar qatlamchalariga ega ohaktoshli argillitlar; qatlamlanish o'zaro parallel g'olda; ikki tabaqalilar, mshankalar va krinoideyalar qoldiqlari. Qalinligi-75 m.

3-qatlam. P . 2-qatlamning yuvilgan yuzasiga ohaktoshlar yotadi. Qalinligi-30 m.

KN-6

1-qatlam. $C_1 v_1$. Quyi paleozoyning notekis yuzasiga qiya qatlamlı kulrang qumtoshlar va alevrolitlar yotadi; quruqlik o'simliklari qoldiqlari. Qalinligi-8 m.

2-qatlam. $C_1 v_2$. Qiya qatlamlı kulrang qumtoshlar va ko'mirlashgan alevrolitlar. Qalinligi-14 m.

3-qatlam. $C_1 s_1$. Oolitli ohaktoshlar qatlamchalariga ega mayda donali qumtoshlar; braxiopodalar va krinoideyalar qoldiqlari. Qalinligi-45 m.

4-qatlam. P . 3-qatlamning yuvilgan yuzasiga ohaktoshlar yotadi. Qalinligi-25 m.

KN-7

1-qatlam. $D_3 fr_1$. Argillit qatlamchalariga ega kulrang alevrolitlar va qumtoshlar; ayrim joylarda tog' jinslari qizil rangda; quruqlik o'simliklari, baliqlari va ikki tabaqalilar qoldiqlari mavjud; qiya qatlamlilik va qurish darzliklari kuzatiladi. Qalinligi-30 m.

2-qatlam. $D_3 fr_1$. Trilobitlar va braxiopodalar qoldiqlari bilan o'zaro almashinib yotuvchi qumtoshlar va gilli ohaktoshlar. Qalinligi-18 m.

3-qatlam. $D_3 fm_1$. O'simliklar qoldiqlariga ega alevrolitlar va yirik qiya qatlamlı qumtoshlar; temir oolitlariga ega gilli ohaktoshlar gorizonti; korallar va mshankalar qoldiqlari. Qalinligi-20 m.

4-qatlam. $D_3 fm_2$. Gilli ohaktoshlar va argillitlar gorizontlarini o'zida qamragan qumtoshlar; qatlamlanish to'lqinsimon tarzda; ohaktoshli suv o'tlarining mo'l qoldiqlari. Qalinligi-25 m.

5-qatlam. C_1 t_1 . Oddiy qumtoshlar va g‘o‘lak toshlar qo‘sishchalariga ega yirik donali qumtoshlar; quruqlik o‘simliklari qoldiqlari kuzatiladi; tog‘ jinslarinig rangi sarg‘ish-qo‘ng‘ir; qiya qatlamlanish holatiga ega. Qalinligi-30 m.

6-qatlam. C_1 t_2 . Argillitlar va qumtoshlar qatlamlari; qatlamlanish to‘lqinsimon ko‘rinishda, simmetrik ryab belgilari kuzatiladi; braxiopodalarning siyrak qoldiqlari mavjud. Qalinligi-25 m.

7-qatlam. C_1 s_1 . 6-qatlamning yuvilgan yuzasiga ohaktoshlar qatlamchalarini qamragan mayda donali qumtoshlar yotadi; braxiopodalar va krinoideyalar qoldiqlari kuzatiladi. Qalinliga-40 m.

8-qatlam. P . 7-qatlamning yuvilgan yuzasiga ohaktoshlar qatlami yotadi. Qalinligi-25 m.

KN-8

1-qatlam. D_3 fr_1 . Argillit qatlamchalarini qamragan yashikulrang alevrolitlar va qumtoshlar; ayrim joylarda tog‘ jinsining ranggi qizil; quruqlik o‘simliklari va baliqlar qoldiqlari; qiya qatlamlanish kuzatiladi. Qalinligi-70 m.

2-qatlam. D_3 fr_2 . Dengiz jonivorlari qoldiqlariga ega va o‘zaro almashinib yotuvchi gilli va dolomitlashgan ohaktoshlar; glaukonit donalari uchraydi. Qalinligi-15 m.

3-qatlam. D_3 fm_1 . Kolonial korallar qoldiqlariga ega argillitlar, gilli va dolomitlashgan ohaktoshlar. Qalinligi-30 m.

4-qatlam. D_3 fm_2 . Gilli ohaktoshlar va argillitlar goroizontlarini hamda dengiz faunasi qoldiqlarini qamragan qumtoshlar. Qalinligi-50 m.

5-qatlam. C_1 t_1 . Gravelit qatlamchalariga ega turli donali qumtoshlar; quruqlik o‘simliklari va baliqlar qoldiqlari; o‘zaro almashinib yotuvchi ohaktoshlar, mergellar va argillitlar qatlamchalari ayrim joylarda qizil rangga ega. Qalinligi-65 m.

6-qatlam. C_1 t_2 . Glaukonit donalariga ega ohaktoshlar, qumtoshlar va argillitlar; braxiopodalar qoldiqlari. Qalinligi-52 m.

7-qatlam. C_1 v_1 . Paparotniklar va plauroid o‘simliklarning po‘stlog‘i va barglari izlariga ega hamda ulardan hosil bo‘lgan ko‘mirlashgan qatlamchalarni o‘zida qamragan qoramtilrangli

qumtoshlar va alevrolitlar; asimmetrik ryab belgilari. Qalinligi- 10 m.

8-qatlam. **C₁ v₂.** Kulrang qiya qatlamlı qumtoshlar va qoramtil ko'mir tusli alevrolitlar. Qalinligi-20 m.

9-qatlam. **C₁ s₁.** Oolitli ohaktoshlar linzalariga ega mayda donali kvarsli qumtoshlar. Qalinligi-25 m.

10-qatlam. **P.** 9-qatlamning yuvilgan yuzasiga ohaktosh qatlami yotadi. Qalinligi-20 m.

KN-9

1-qatlam. **D₃ fr₁.** Argillit qatlamchalariga ega kulrang alevrolitlar va qumtoshlar; ayrim joylarda tog' jinslarining rangi qizil; quruqlik o'simliklari va baliqlar qoldiqlari; qiya qatlamlanish va qurish darzliklari kuzatiladi. Qalinligi-65 m.

2-qatlam. **D₃ fr₂.** Trilobit va braxiopoda qoldiqlarini qamragan va o'zaro qatlamlanib yotuvchi qumtosh va gilli ohaktoshlar. Qalinligi-18 m.

3-qatlam. **D₃ fm₁.** O'simliklar qoldiqlari va siniq chig'anoqlar uyumlarini qamragan alevrolitlar va yirik donali qumtoshlar; temir oolitlariga ega gilli ohaktoshlar gorizontlari; mshankalar va korallar qoldiqlari. Qalinligi-24 m.

4-qatlam. **D₃ fm₂.** Gilli ohaktoshlar va argillitlar gorizontlarini qamragan qumtoshlar; ohaktoshli suv o'tlari. Qalinligi-20 m.

5-qatlam. **C₁ t₂4-qatlamning yuvilgan yuzasiga** braxiopodalarining mo'lgina qoldiqlari mavjud bo'lgan kulrang ohaktoshlar, qumtoshlar va argillitlar yotadi. Qalinligi-50 m.

6-qatlam. **C₁ v₁.** To'q kulrang qumtoshlar va alevrolitlar, ba'zi joylarda ko'mirlashgan moddalar qoldiqlariga ega. Qalinligi-15 m.

7-qatlam. **C₁ v₂.** Braxiopodalar qoldiqlari bilan argillitlar; o'simliklar qoldiqlariga ega qumtoshlar qatlamchalar. Qalinligi-30 m.

8-qatlam. **C₁ s₁.** Mshankali ohaktoshlar, oqish rangda, massiv xarakterga ega, qoramtil tusdagi argillitlar qatlamchalariga ega. Qalinligi-58 m.

9-qatlam. **P.** 8-qatlam yuzasiga ohaktoshlar yotadi. Qalinligi-25 m.

KN-10

1-qatlam. D_3 fr₁. Siderit g'oo'ddalarining siyrak qoldiqlariga ega qoramtilsiz tusli argillitlar; o'simlik parchalariga ega alevrolit va qumtosh qatlamlachalari.

Qalinligi-100 m.

2-qatlam. D_3 fr₂. Mshankalar qoldiqlarini qamragan hamda o'zaro almashinib yotuvchi gilli va dolomitlashgan ohaktoshlar. Qalinligi-25 m.

3-qatlam. D_3 fm₁. Kolonial korallar bilan mshankalarning qoldiqlariga ega argillitlar va dolomitlashgan ohaktoshlar. Qalinligi-40 m.

4-qatlam. D_3 fm₂. Ohaktoshlar, mergellar va argillitlar; mshankalar, korallar, braxiopodalar va trilobitlarning mo'lgin qoldiqlari. Qalinligi-130 m.

5-qatlam. C₁ t₁. Trilobitlarning siyrak va braxiopodlarning ko'plab qoldiqlariga ega ohaktoshlar va dolomitlar. Qalinligi-1 m.

6-qatlam. C₁ t₂. Yaxshi saqlangan korall va mshankalarning ko'plab qoldiqlariga ega ohaktosh va argillit qatlamlari; glaukonit donalari kuzatiladi. Qalinligi-20 m.

7-qatlam. C₁ v₁. Toshko'mir linzalarini qamragan qumtoshlar va alevrolitlar. Qalinligi-12 m.

8-qatlam. C₁ v₁. O'simlik qoldiqlari saqlanib qolgan qumtosh qatlamlachalarini o'zida qamragan argillitlar; argillitlarda braxiopodalar qoldiqlari kuzatiladi. Qalinligi-20 m.

9-qatlam. C₁ s₁. Oolitli ohaktoshlar linzalariga ega qumtoshlar. Qalinligi-40 m.

10-qatlam. P. 9-qatlamning yuvilgan yuzasiga ohaktoshqatlami yotadi. Qalinligi-20 m.

KN- 11

1-qatlam. D_3 fr₁. Sideritning kam uchrovchi g'oo'ddalariga ega argillitlar; quruqlik o'simliklari qoldiqlari bilan alevrolit va qumtoshlar qatlamlachalari. Qalinligi-125 m.

2-qatlam. D_3 fr₂. Dengiz faunasi qoldiqlariga ega gilli va dolomitlashgan ohaktoshlarning o'zaro almashinib yotishi. Qalinligi-27 m.

3-qatlam. D_3 fm₁. Kolonial korallar qoldiqlarini o'zida qamragan argillitlar hamda gilli va dolomitlashgan ohaktoshlar. Qalinligi-45 m.

4-qatlam. D_3 fm₂. Ohaktoshlar, mergellar va argillitlar; glaukonit donalari; braxiopoda, mshanka va korallar qoldiqlari kuzatiladi. Qalinligi-150 m.

5-qatlam. C_1 t₁. Oqish rangdagi ohaktoshlar va dolomitlar; ohaktoshli suv o'tlari, braxiopodalar qoldiqlari. Qalinligi-190 m.

6-qatlam. C_1 t₂. Kulrang ohaktoshlar va argillitlar; mshanka va korallar qoldiqlari. Qalinligi-50 m.

7-qatlam. C_1 v₁. Quruqlik o'simliklari qoldiqlariga ega mayda donali kulrang qumtoshlar va argillitlar. Qalinligi-10 m.

8-qatlam. C_1 v₂. Braxiopodalar qoldiqlari bilan kulrang argillitlar; o'simliklarning siyrak qoldiqlariga ega qumtoshlar qatlamchalari. Qalinligi-50 m.

9-qatlam. C_1 s₁. Oolitli ohaktoshlar linzalarini qamragan qumtoshlar; qatlamlanish to'lqinsimon. Qalinligi-75 m.

10-qatlam. P. 9-qatlamning yuvilgan yuzasiga ohaktosh qatlami yotadi. Qalinligi-25 m.

KN-12

1-qatlam. D_3 fr₁. Alevrolitlar va qumtoshlar qatlamchalarini qamragan kulrang argillitlar; ikki tabaqalilar qoldiqlar mavjud. Qalinligi-157 m.

2-qatlam. D_3 fr₂. Ohaktoshlar va gilli ohaktoshlarning o'zaro almashinib yotishi; pirit donalariga ega qoramitir ohaktoshli argillitlar; ikki tabaqalilarning siyrak qoldiqlari. Qalinligi-72 m.

3-qatlam. D_3 fm₁. Ayrim joylari bitumlashgan yupqa qatlamli ohaktoshli argillitlar va gilli ohaktoshlar; ikki tabaqalilarning siyrak va korallarning alohida hamda tentakulitlarning qoldiqlari kuzatiladi. Qalinligi-100 m.

4-qatlam. D_3 fm₂. Mshankalar va korallar qoldiqlariga ega plitkasimon ohaktoshlar, mergellar va argillitlar. Qalinligi-165 m.

5-qatlam. C_1 t₁. Braxiopodalarining siyrak qoldiqlariga ega massiv xarakterdagи ohaktoshlar va dolomitlar. Qalinligi-290 m.

6-qatlam. C_1 t_2 . Mshankalarining siyrak qoldiqlariga ega kulrang ohaktoshlar va argillitlar; qatlamlanish o‘zaro parallel tarzda. Qalinligi-75 m.

7-qatlam. C_1 v_1 . Iikki tabaqalilarning uyalari qoldiqlari va quruqlik hayvonlari izlarilariga ega qumtoshlar va argillitlar; paparotniklar yaproqlarining siyrak muhrlari kuzatiladi. Qalinligi-3 m.

8-qatlam. C_1 v_2 . Argillitlar, qumtoshlar qatlamchalari; braxiopodalar qoldiqlari vav o‘simliklar muhrlari kuzatiladi. Qalinligi-70 m.

9-qatlam. C_1 s_1 . Oolitli ohaktoshlar linzalarini qamragan kvarsli qumtoshlar; krinoideyalarining siyrak tarqalgan qoldiqlari. Qalinligi-100 m.

10-qatlam. C_1 s_2 . Quruqlik o‘simliklari qoldiqlariga ega qiya qatlamlili kulrang qumtoshlar va alevrolitlar. Qalinligi-20 m.

KN-13

1-qatlam. D_3 fr_1 . Gips qatlamchalariga ega qumtoshlar va dolomitlashgan argillitlar; qatlamlanish to‘lqinsimon tarzda. Qalinligi-35 m.

2-qatlam. D_3 fr_2 . Mergel qatlamchalariga ega tosh tuzi qatlami. Qalinligi-70 m.

3-qatlam. D_3 fm_1 . Bitumlashgan ohaktoshlar, mergellar va argillitlar; yonuvchi slanetslar. Qalinligi-35 m.

4-qatlam. D_3 fm_2 . Mergel va argillitlar qatlamchalarini o‘zida qamragan tosh tuzi, gips va angidritlar qatlamlari. Qalinligi-150 m.

5-qatlam. S_1 t_1 . Quruqlik o‘simliklari qoldiqlariga ega, odatda qizg‘ish-qo‘ng‘ir tusdagi mergellar va argillitlar bilan o‘zaro almashinib yotuvchi tosh tuzi, gips va angidrit qatlamlari. Qalinligi-130 m.

6-qatlam. C_1 t_2 . Argillit va qumtoshlar; chuvalchanglar va ko‘milib oluvchi ikki tabaqalilarning uyalari; simmetrik ryab belgilari; braxiopodalar qoldiqlari.

Qalinligi-13-m.

7-qatlam. C_1 v_1 . Ko‘mirlashgan o‘simliklarning ko‘plab qoldiqlariga ega hamda qiya qatlamlashgan, mayda donali va kulrang tusdagi qumtoshlar va argillitlar.

Qalinligi- 15 m.

8-qatlam. $C_1 v_2$. Dengiz umurtqasizlari qoldiqlariga ega argillitlar; ko'mirlashgan quruqlik o'simliklari qoldiqlari bilan qumtoshlar ham mavjud. Qalinligi-100 m.

9-qatlam. $C_1 s_1$. Qumtosh va ohaktosh qatlamchalariga ega ohaktoshli argillitlar; mshanka va krinoideyalar qoldiqlari kuzatiladi. Qalinligi-145 m.

10-qatlam. $C_1 s_2$. Argillitlar, kulrang qumtoshlar va ohaktoshlar qatlamchalari; dengiz umurtqasizlarining ko'plab qoldiqlari. Qalinligi-30 m.

KN-14

1-qatlam. $C_1 v_1$. Quyi paleozoyning yuvilgan notekis yuzasiga o'simlik parchalariga ega kulrang qumtoshlar va argillitlar yotadi. Qalinligi-15 m.

2-qatlam. $C_1 v_2$. Braxiopoda chig'anoqlari qoldiqlariga ega argillitlar; qumtoshlar qatlamchalar ko'rinishida. Qalinligi-25 m.

3-qatlam. $C_1 s_1$. Qumtosh va ohaktoshlar qatlamchalarini qamragan ohaktoshli argillitlar; braxiopoda, mshanka va dengiz liliyalarining siyrak qoldiqlari. Qalinligi-111 m.

4-qatlam. $C_1 s_2$. Quruqlik o'simliklari qoldiqlariga ega qiya qatlamli yirik qumtoshlar. Qalinligi-20 m.

KN-15

1-qatlam. $C_1 t_2$. Quyi paleozoyning yuvilgan notekis yuzasiga yashilsimon – kulrang argillit va qumtoshlar yotadi; qatlamlanish to'lqinsimon; braxiopodalar qoldiqlari avjud. Qalinligi-17 m.

2-qatlam. $C_1 v_1$. Mayda donali qumtoshlar va to'q-kulrang argillitlar, ayrim joylari ko'mirlashgan. Qalinligi-25 m.

3-qatlam. $C_1 v_2$. Braxiopoda qoldiqlariga ega argillitlar, o'simliklar parchalari qoldiqlari bilan qiya qatlamli qumtosh qatlamchalari. Qalinligi-24 m.

4-qatlam. $C_1 s_1$. Qoramtil tusdag'i piritlashgan argillitlar qatlamchalarini qamragan mshankali ohaktoshlar. Qalinligi-100 m.

5-qatlam. $C_1 s_2$. Quruqlik o'simliklari qoldiqlariga ega yirik qumtoshlar ; asimmetrik ryab belgilari. Qalinligi-15 m.

KN-16

1-qatlam. $D_3\ fr_1$. Qizil rangli alevrolitlar va yirik qiya qatlamlı qumtoshlar; konglomeratlar linzalari. Qalinligi-14 m.

2-qatlam. $C_1\ t_2$. 1-qatlamning yuvilgan yuzasiga ko‘milib oluvchi ikki tabaqalilar uyalariga ega argillit va qumtoshlar qatlamlari yotadi; simmetrik ryab belgilari va braxiopodalar qoldiqlari saqlanib qolgan. Qalinligi-35 m.

3-qatlam. $C_1\ v_1$. Qiya qatlamlı mayda donali qumtoshlar va argillitlar, deyarli qora tusda, tosh ko‘mir linzalari mavjud. Qalinligi-13 m.

4-qatlam. $C_1\ v_2$. Braxiopoda qoldiqlariga ega kulrang argillitlar, o‘simliklar muhrlarini o‘zida saqlagan qiya qatlamlı mayda donali qumtoshlar qatlamchalari. Qalinligi-20 m.

5-qatlam. $C_1\ s_1$. Argillitlar qatlamchalarini o‘zida qamragan oqish rangdagi, massiv xarakterdagи mshankali ohaktoshlar. Qalinligi-40 m.

6-qatlam. P . 5-qatlamning yuvilgan notejis yuzasiga ohaktoshlar yotadi. Qalinligi-20 m.

KN-17

1-qatlam. $D_3\ fr_1$. Qizil rangli alevrolitlar va yirik qiya qatlamlı qumtoshlar; konglomeratlar linzalari kuzatiladi. Qalinligi-17 m.

2-qatlam. $D_3\ fr_2$. Qumtoshlar va gilli ohaktoshlar; braxiopodalar va trilobitlar qoldiqlari kuzatiladi. Qalinligi-13 m.

3-qatlam. $D_3\ fm_1$. Qiya qatlamlı mayda donali qumtoshlar, g^ko‘lak toshlar qo‘shimchalari bilan hamda quruqlik o‘simliklari qoldiqchalariga ega yirik qumtoshlar qatlamchalari. Qalinligi-3 m.

4-qatlam. $C_1\ t_2$. 3-qatlam yuzasiga yirik foraminiferalar qoldiqlari bilan ohaktoshlar yotadi, braxiopodalarining siyrak qoldiqlariga ega qumtoshlar va argillitlar qatlamlari ham mavjud. Qalinligi-45 m.

5-qatlam. $C_1\ v_1$. Paporotniksimon o‘simliklar barglari siyrak muhrlangan kulrang qumtoshlar va argillitlar. Qalinligi-35 m.

6-qatlam. $C_1\ v_2$. Braxiopoda qoldiqlarigi ega argillit va o‘simliklar parchalarini qamragan qumtosh qatlamchalari. Qalinligi-40 m.

7-qatlam. $C_1 s_1$.Qoramtidir argillitlar qatlamchalarini o‘zida qamragan, massiv tuzilishga ega oq rangli ohaktoshlar. Qalinligi-40 m.

8-qatlam. P .7-qatlamning notekis yuzasiga ohaktoshlar yotadi. Qalinligi-25 m.

KN-18

1-qatlam. $D_3 fr_1$.Argillitlar va g‘o‘laktoshlar qo‘shimchasiga ega yirik qiya qatlamlashgan qumt oshlar; ayrim joylarda tog‘ jinslari qizil rangga ega.

Qalinligi-33 m.

2-qatlam. $D_3 fr_2$. Qumtoshlar va gilli ohaktoshlar; dengiz liliyalari, braxiopodalar va trilobitlarning qoldiqlari. Qalinligi-10 m.

3-qatlam. $D_3 fm_1$.Qiya qatlamlili mayda donali qumtoshlar, g‘o‘lak toshlar qo‘shimchalariga ega yirik qumtoshlar qatlamchalari, quruqlik o‘simlik qoldiqchalar kuzatiladi. Qalinligi-5 m.

4-qatlam. $D_3 fm_2$. Gilli ohaktoshlar va argillitlar qatlamchalarini qamragan qumtoshlar; to‘lqinsimon qatlamlanishga ega, karbonatli suv o‘tlari va sudralish izlari kuzatiladi. Qalinligi-40 m.

5-qatlam. $C_1 t_1$.Oddiy qumtoshlar va g‘o‘lak toshlar qo‘shilmalariga ega yirik donali qumtoshlar, rangi qizil, qiya qatlamlanish ko‘rinishida; quruqlik o‘simliklari qoldiqlari mavjud.Qalinligi-60 m.

6-qatlam. $C_1 t_2$.Mshankali ohaktoshlar va ilxo‘r-chuvalchanglar izlariga ega argillitlar; parallel qatlamlangan. Qalinligi-40 m.

7-qatlam. $C_1 v_1$.Yupqa ko‘mir qatlamchalarini qamragan qiya qatlamlili qumtoshlar va argillitlar. Qalinligi-35 m.

8-qatlam. $C_1 v_2$. Korall ohaktoshlari va qumtoshlarning yupqa qatlamchalarini qamragan argillitlar. Qalinligi-45 m.

9-qatlam. $C_1 s_1$.Massiv va zinch ohaktoshlar, organik qoldiqlarga ega emas.

Qalinligi-25 m.

10-qatlam. $C_1 s_2$. Quruqlik o‘simliklari qoldiqlariga ega qiya qatlamlili kvars qumtoshlari. Qalinligi-22 m.

KN-19

1-qatlam. **D₃ fr₁.** Argillitlar va g‘o‘lak toshlar qo‘shimchalariga ega qiya qatlamlı yirik qumtoshlar qatlami; tog‘ jinslari ayrim joylarda qizil rangda. Qalinligi-64 m.

2-qatlam. **D₃ fr₂.** Braxiopoda va mshankalar qoldiqlariga ega va parallel qatlamlangan ohaktoshlar, mergellar va alevrolitlarning o‘zaro almashinib yotishi. Qalinligi-28 m.

3-qatlam. **D₃ fm₁.** Quruqlik o‘simliklari qoldiqlariga ega alevrolitlar va yirik qumtoshlar; temir oolitlarini o‘zida qamragan gilli ohaktoshlar gorizontlari; qatlamlar orasida korallar va mshankalar qoldiqlari kuzatiladi. Qalinligi-40 m.

4-qatlam. **D₃ fm₂.** Iffi tabaqalilar, braxiopodalar va ohaktoshli suv o‘tlari qoldiqlariga ega gilli ohaktoshlar va argillitlar gorizontlarini o‘zida qamragan qumtoshlar. Qalinligi-85 m.

5-qatlam. **C₁ t₁.** Gravelit qatlanchalariga ega turlicha donali qumtoshlar qatlami; baliqlar va quruqlik o‘simliklari qoldiqlari; ostrakoda qoldiqlariga ega ohaktosh qatlanchalari, yana shuningdek, mergellar va argillitlar qatlanchalari ham kuzatiladi; ayrim joylarda tog‘ jinslari qizg‘ish-qo‘ng‘ir tusga ega. Qalinligi-155 m.

6-qatlam. **C₁ t₂.** Yupqa qatlamlı ohaktosh va argillitlar, korall va mshankalar qoldiqlari siyrak holda kuzatiladi. Qatlam qalinligi-50 m.

7-qatlam. **C₁ v₁.** Quruqlik o‘simliklarining ko‘mirlashgan qoldiqlari to‘plamlarini qamragan qoramtil rangli qumtoshlar va argillitlar. Qalinligi-30 m.

8-qatlam. **C₁ v₂.** Koralli ohaktoshlar va mayda qumtoshlar qatlanchalarini qamragan argillitlar qatlami. Qalinligi-40 m.

9-qatlam. **C₁ s₁.** Mshankali ohaktoshlarning yirik qatlamlari va pirit kristallariga ega qoramtil argillitlarning qatlanchalari kuzatiladi. Qalinligi-50 m.

10-qatlam. **C₁ s₂.** Quruqlik o‘simliklari qoldiqlariga ega qiya qatlamlı qumtoshlar va alevrolitlar. Qalinligi-23 m.

KN-20

1-qatlam. **D₃ fr₁.** Siderit g‘o‘ddalarining siyrak qoldiqlariga ega argillit qatlamlari; o‘simlik detritlarini qamragan alevrolit va qumtoshlar qatlanchalari. Qalinligi-10 m.

2-qatlam. **D₃ fr₂**. Mshanka va ikki tabaqalilarning serob qoldiqlariga ega gilli va dolomitlashgan ohaktoshlar qatlamlarining o'zaro almashinib yotishi. Qalinligi-10 m.

3-qatlam. **D₃ fm₁**. Argillitlar, dolomitlashgan va gilli ohaktoshlarning o'zaro qatlamlashib yotishi; krinoideyalar, braxiopodalar, koloniall korallar va mshankalar qoldiqlari. Qalinligi-85 m.

4-qatlam. **D₃ fm₂**. Korallar, braxiopodalar va ikki tabaqalilarning qoldiqlariga ega ohaktoshlar, mergellar va argillitlar. Qalinligi-166 m.

5-qatlam. **C₁ t₁**. Trilobitlar va braxiopodalar qoldiqlariga ega ochiq-kulrang ohaktoshlar va dolomitlar. Qalinligi-266 m.

6-qatlam. **C₁ t₂**. Korallar va mshankalar qoldiqlariga ega ohaktoshlar va argillitlar. Qalinligi-100 m.

7-qatlam. **C₁ v₁**. Ikki tabaqalilarning chig'anoqlari va uyalari qoldiqlariga ega qumtosh va argillit qatlamlari. Qalinligi- 5 m.

8-qatlam. **C₁ v₂**. Koralli ohaktoshlar va mayda donali qumtoshlar qatlamchalarini qamragan argillitlar; glaukonit donalari kuzatiladi. Qalinligi- 80 m.

9-qatlam. **C₁ s₁**. Pirit kristallariga ega plitkasimon kulrang ohaktoshlar va qoramtil argillitlar. Qalinligi-150 m.

10 -qatlam. **C₁ s₂**. Quruqlik o'simliklari qoldiqlariga ega qiya qatlamlili oqish rangli kvarsli qumtoshlar va alevrolitlar. Qalinligi-35 m.

KN-21

1-qatlam. **D₃ fr₁**. Angidrit linzalarini qoplagan qumtoshlar va dolomitlashgan argillitlar; qatlamlanish to'lqinsimon tarzda. Qalinligi-40 m.

2-qatlam. **D₃ fr₂**. Mergel qatlamchalarini o'zida qamragan tosh tuzi qatlami.

Qalinligi-115 m.

3-qatlam. **D₃ fm₁**. Mergel va argillitlar; piritlashgan va bitumlashgan ohaktoshlar, yonuvchi slaneslar qatlamchalari. Qalinligi-70 m.

4-qatlam. **D₃ fm₂**. Mergel va argillitlar qatlamchalarini qamragan tosh tuzi, gips va angidrit qatlamlari. Qalinligi-200 m.

5-qatlam. C_1 t_1 . Tosh tuzi qatlami; gips va angidrit qatlamchalar, quruqlik o'simliklari parchalari bilan kulrang mergellar va qizil rang argillitlar. Qalinligi-280 m.

6-qatlam. C_1 t_2 Argillitlar va qumtoshlar ; qatlamlanish to'lqinsimon; braxiopodalar qoldiqlari kuzatiladi. Qalinligi-120 m.

7-qatlam. C_1 v_1 . Ohaktosh va argillitlar qatlamchalarini qamragan qumtoshlar; to'lqinsimon qatlamlanish; korallar, produktidlar va mshankalarining mo'l qoldiqlari. Qalinligi- 85 m.

8-qatlam. C_1 v_2 . Argillitlar, korallar va ikki tabaqalilar qoldiqlari bilan ohaktoshlar, mayda donali qumtoshlar. Qalinligi-65 m.

9-qatlam. C_1 s_1 . Qumtoshlar, tosh ko'mir qatlamchalarini qamragan argillitlar va dengiz jonivorlari qoldiqlariga ega ohaktoshlarning o'zaro almashinib yotishi. Qalinligi-125 m.

10- qatlam. C_1 s_2 . Qumtoshlar va ohaktoshlar qatlamchalarini qamragan argillitlar; tog' jinslari kulrang tusda; korallar, krinoideyalar va mshankalar qoldiqlari massasi. Qalinligi-80 m.

KN-22

1-qatlam. D_3 fr_1 . Qizil rangli alevrolitlar va yirik qiya qatlamli qumtoshlar; konglomeratlar linzasi. Qalinligi-20 m.

2-qatlam. D_3 fr_2 . Mergel qatlamchalariga ega tosh tuzi qatlami. Qalinligi-50 m.

3-qatlam. D_3 fm_1 . Yonuvshi slaneslar qatlamchalarini o'zida qamragan argillitlar, mergellar va bitumlashgan ohaktoshlar; tentakultlarning siyrak qoldiqlari. Qalinligi- 35 m.

4-qatlam. D_3 fm_2 . Tosh tuzi qatlami, mergel va argillit qatlamchalarini o'zida qamragan gips va angidrit qatlamlari. Qalinligi-108 m.

5-qatlam. C_1 t_1 . Gips, mergel va argillit qatlamchalarini o'zida qamragan tosh tuzi qatlami. Qalinligi-150 m.

6-qatlam. C_1 t_2 . Braxiopodalarning mo'l qoldiqlarigiga ega ohaktoshlar, qumtoshlar va argillitlar; qatlamlanish parallel tarzda. Qalinligi-60 m.

7-qatlam. C_1 v_1 . Kulrang argillitlar va ohaktoshlar qatlamchalarini qamragan qumtoshlar qatlamchalari, braxiopoda qoldiqlari mavjud, shomazit donalari uchraydi. Qalinligi-70 m.

8-qatlam. $C_1 v_2$. Kremniy konkretsiyalarini qamragan oqish-kulrang ohaktoshlar va argillitlar. Qalinligi-80 m.

9-qatlam. $C_1 s_1$. Qumtosh va ohaktosh qatlamlchalarini qamragan ohaktoshli argillitlar; braxiopodalar, mshankalar va yolg'iz korallar qoldiqlari ko'plab uchraydi.

Qalinligi-115 m.

10-qatlam. $C_1 s_2$. Kulrang ohaktoshlar va qumtoshlar qatlamlchalarini o'zida qamragan argillitlar; shamoxit donalari uchraydi; dengiz umurtqasizlari qoldiqlari serob holda mavjud. Qalinligi-50 m.

KN-23

1-qatlam. $C_1 t_2$. Quyi paleozoyning notekis yuzasiga dengiz umurtqasizlarining yaxshi saqlangan qoldiqlarini o'zida qamragan ohaktoshlar, qumtoshlar va argillit qatlamlari yotadi. Qalinligi-50 m.

2-qatlam. $C_1 v_1$. Ko'mirning linzasimon qatlamlchalarini o'zida qamragan qoramtil rangdagi qumtoshlar va argillitlar. Qalinligi-54 m.

3-qatlam. $C_1 v_2$. Kremniy konkretsiyalariga ega argillit va ohaktoshlar qatlami. Qalinligi-55 m.

4-qatlam. $C_1 s_1$. Plitkasimon ohaktoshlar va qoramtil rangli argillitlar; piritning siyrak uchrovchi kristallari kuzatiladi. Qalinligi-120 m.

5-qatlam. $C_1 s_2$. Argillit qatlamlchalariga ega ohaktoshli suv o'tlari qatlami; tog' jinslari kulrang tusda; qatlamlanish parallel tarzda; braxiopodalar, ikki tabaqalilarning massiv chig'anoqlari qoldiqlari kuzatiladi. Qalinligi-40 m.

KN-24

1-qatlam. $C_1 t_2$. Quyi paleozoyning notekis yuzasiga fuzulina qoldiqlaridan hosil bo'lgan ohaktoshlar, shuningdek, qumtoshlar va argillit qatlamlari yotadi; yupqa qatlamlanish o'zaro parallel tarzda. Qalinligi-60 m.

2-qatlam. $C_1 v_1$. Qumtoshlar va ko'mirlashgan argillitlar; toshko'mir linzalari kuzatiladi. Qalinligi-33 m.

3-qatlam. $C_1 v_2$. Kulrang qatlamlashgan argillitlar; ohaktosh va qumtoshlar qatlamlchalari. Qalinligi-32 m.

4-qatlam. C₁ s₁. Mshankali ohaktoshlar va qoramtidir argillitlar; qatlamlanish parallel tarzda; siderit g'oddalari kuzatiladi. Qalinligi-105 m.

5-qatlam. C₁ s₂.Quruqlik o'simliklari qoldiqlari ega qiya qatlamlashgan yirik donali qumtoshlar. Qalinligi-20 m.

KN-25

1-qatlam. D₃ fr₁.Qizil rangli alevrolitlar, kulrang va qizg'ish-qo'ng'ir rangdagi konglomeratlar linzalariga ega yirik donali va qiya qatlamlashgan qumtoshlar. Qalinligi-25 m.

2-qatlam. D₃ fr₂.O'zaro qatlamlanib yotgan qumtoshlar va gilli ohaktoshlar; tog' jinslari yashilsimon-kulrang tusda; trilobitlar qoldiqlari kuzatiladi; qatlamlanish to'lqinsimon tarzda. Qalinligi-10 m.

3-qatlam. C₁ t₂.2-qatlamning yuvilgan yuzasiga massiv xarakterdagи oqish-kulrang ohaktoshlar yotadi; mshankalarning siyrik qoldiqlari kuzatiladi. Qalinligi-65 m.

4-qatlam. C₁ v₁.Ohaktoshlar va argillitlarning qatlamchalarini qamragan o'rtal donali qumtoshlar; tog' jinslari oq rangdan to'q-kulranggacha; braxiopodalar va ammonoideyalarning yaxshi saqlangan mo'l qoldiqlari kuzatiladi. Qalinligi-16 m.

5-qatlam. C₁ v₂.Ohaktosh va qumtoshlar qatlamchalariga ega argillitlar.

Qalinligi-60 m.

6-qatlam. C₁ s₁.Oqish rangli massiv ohaktoshlar, tosh qotgan organik qoldiqlar kuzatilmaydi.Qalinligi-18 m.

7-qatlam. C₁ s₂.Argillit qatlamchalariga ega to'q-kulrang tusdagи ohaktoshli suv o'tlari; braxiopoda qoldiqlari siyrik kuzatiladi. Qalinligi-30 m.

KN-26

1-qatlam. D₃ fr₁. Qurish darzliklariga ega argillitlar va g'o'lak toshlar qo'shilmalarini qamragan qiya qatlamlı yirik qumtoshlar. Qalinligi-50 m.

2-qatlam. D₃ fr₂. Qumtoshlar va gilli ohaktoshlar; trilobitlar va braxiopodalar qoldiqlari kuzatiladi. Qalinligi-20 m.

3-qatlam. D_3 fm_2 . 2-qatlamning yuvilgan yuzasiga gilli ohaktoshlar va argillitlarning qatlamchalarini qamragan qiya qatlamlı qumtoshlar yotadi. Qalinligi-20 m.

4-qatlam. C_1 t_1 .G'o'lak tosh qo'shilmalariga ega, qizil rangli, qiya qatlamlı, ko'proq yirik donali qumtoshlar. Qalinligi-52 m.

